

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS**

**TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI**

**“MAKTAB VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY TADBIRLAR  
ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI”  
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi: “Boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish” ta’lim yo’nalishi  
bitiruvchisi .\_\_\_\_\_Xurramova Maxfuza**

**ILMIY RAHBAR:**

**Berdiyeva Halima\_\_\_\_\_**

**Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.**

\_\_\_\_\_sonli bayonnomasi “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_2017 yil

**TERMIZ – 2017**

# **MAKTAB VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY TADBIRLAR ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI**

## **KIRISH**

### **I BOB. O‘ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDA O‘QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....**

#### **I.1. Boshlang‘ich sinflarda milliy qadriyatlarni shakllantirish mazmuni.....**

#### **I.2. SHarq mutafakkirlarining milliy –axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash haqidagi fikrlari.....**

#### **1.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishning amaldagi holati.....**

### **II bob. MAKTAB VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY TADBIRLAR ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI VA USULLARI.....**

#### **II.1. Sinfдан tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash yo‘llari.....**

#### **II.2. Maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirishga doir tajriba –sinov ishlari va natijalar tahlili.....**

#### **XULOSA.....**

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....**

## Kirish

### Mavzuning dolzarbligi.

Ertangi kunimizning asoschilari bo'lgan bolalar va yoshlarga imtiyozli sharoitlar berilishi qonun hujjatlarida alohida tarzda belgilab qo'yilgan. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida ko'rsatilgan yoshlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilishga oid davlat kafolatlari ichida yoshlar uchun sport-sog'lomlashtirish va madaniy-ma'rifiy muassasalarga imtiyozli shartlarda qatnashish imkoniyati berilishi mustahkamlangan. **Zero, birinchi Prezidentimiz** Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Hammamizga teran bir haqiqat ayon bo'lishi kerak - biz yurtimizning ertangi rivoji yo'lida qanday chuqur o'ylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarni bajarish uchun qanday moddiy bazani va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha ko'p sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo'lsa, yuqori malakali ishchi kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis yoshlarimiz desak, o'ylaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi".<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro'y bergan o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali Kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Ana shu ijtimoiy maqsadni amalga oshirish uchun yangi turdagi o'quv muassasalarining faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, o'tgan vaqt mobaynida uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish va mustahkamlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, uning qonuniy zaminlari, huquqiy

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir 29-bet

asoslarini takomillashtirish fuqarolarining siyosiy-huquqiy faolligiga, onglilik, bilimdonlik darajasiga uzviy aloqadorlikdadir.

Fuqarolik tarbiyasining asoslaridan biri millat, xalq ularning hayot mazmunini o'rganish orqali milliy o'zlikni anglashni qaror toptirish ishi sanaladi.

Milliy qadriyatlar g'oyalarini o'rganish asrlar davomida ardoqlanib kelgan an'ana, urf-odat, marosimlar nima uchun millatni bu qadar jipslashtirib qo'yganligidan voqif etadi. Xalq o'tmishi, tarixini o'rganish, milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo'naltirilgan faoliyatga o'quvchilarni jalb etish barkamol avlodni tarbiyalashda ko'zlangan maqsadga elituvchi yo'l sanaladi.

Xalqimiz o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab, barcha sohalarda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari darajasiga yetib olishdek ezgu mavsad sari intilmoqda. Uni amalga oshirish uchun yuksak malakali, axloqiy barkamol mutaxassislar kerak. Shu jihatdan, aqlan yetuk, axloqan pok va jismonan baquvvat insonlarni tarbiyalash masalasi davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu borada ajdodlarimizning boy ma'naviy, axloqiy merosining ahamiyati beqiyosdir. Darxaqiqat, buyuk siymolar bo'lmish ota-bobolarimsh qoldirgan ma'naviy merosni ta'lim-tarbiya sohasiga tatbiq etish jamiyatimizning axloqan barkamol a'zolarini shakllanishida samarali vositadir.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning sifat bosqichida yoshlarga chuqur ta'lim berish bilan birga ularni ma'naviy jihatdan ham yetuk, mafkuraviy, hayotda ham faol ishtirok eta oladigan qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan har bir fuqaroning yagona vatan baxt-saodati uchun doimo ma'suliyat sezib yashashga chorlash ajdodlarimizning bebaho me'rosini, milliy qadriyatlar va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash milliy istiqlol mafkurasining maqsadidir. Zero, «G'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni milliy g'oyada aks etadigan millatning haqiqiy orzusiga ozod va obod vatanga erkin va farovon yashash» orzusiga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, yurtboshimiz

aytganidek “Farzandlarimiz yuragida ona vatanga, shonli tariximizga, muqaddas dinimizga sog’lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo’lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchytirishimiz zarur”.<sup>1</sup>

“Ma’naviyatli el - botir el, bahodir el” deb bejiz aytilmagan. Ma’naviyatda insonning iymoni, e’tiqodi, axloqi va ichki dunyosi namoyon bo’ladi. Komil inson g’oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun butun xalqlarni ham yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma’naviyat ma’rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan.

Mustaqillik tufayli amalga oshirilgan eng buyuk tarixiy ishlardan biri xalqimiz ma’naviy me’rosi tiklana boshlagani bo’ldi. “Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar davomida yozib kelingan g’oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy me’rosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo’lib qoldi, - deb ta’kidlagan edi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov. Respublikamizda azaldan qadriyatlarni tiklash bo’yicha keng ko’lamli jiddiy tadbirlarning amalga oshirilishi jamiyatimiz ma’naviyati binosini qad rostlashga muhim omil bo’lib qolmoqda”.<sup>2</sup>

**Muammoning o’rganilganlik darajasi:** Boshlang’ich sinf o’quvchilariga o’zbek xalqining milliy ma’naviy merosini, qadriyatlarni, o’rgatish muammosini pedagog va psixolog olimlar bir qator tadqiqot ishlarida ma’lum ma’noda o’rgandilar. Ana shunday olimlarimiz sirasiga O.Musulmonova, X.Ziyoyev, T.Mahmudov, E.Yusupov, J.Tulenov, Q.Nazarov H.I.Ibrohimov, H.D.Norqulov va boshqa olimlar mustaqillikning mohiyati, uning ma’naviy asoslari, milliy qadriyatlarimiz, ilmiy merosimizni yoshlar ongiga singdirish yo’llari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligida shaxs ongini shakllantirish masalalarini tadqiq etishgan. Biroq shu paytgacha aynan maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish yo’llari tizimli ravishda ochib berilmagan.

Darhaqiqat, milliy qadriyatlarni tiklash borasida amalga oshirilayotgan

---

1. <sup>2</sup> Karimov I. A. «Yuksak ma’naviyat - jamiyat taraqqiyotining asosi». T.: «O’zbekiston», 1998-y.

tarixiy ishlarimizning qamrovi juda kengdir. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- Qadimiy tariximizning haqqoniy, chuqur va har tomonlama o'rganilishi, tarixiy mavzulardagi asarlarning chop etilishi xalqimiz tarixini tiklashda muhim ahamiyat kasb etmoqda;
- Xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro'z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti kabilarning) tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni, murabbiylar kuni kabilar)ning joriy etilishi xalq ma'naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag'ishlamoqda;
- Dunyo taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ajdodlarimizning buyuk mutafakkirlar, davlat arboblari ma'naviy me'rosidan xalqimiz faxr bilan foydalana boshlashi, jumladan, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband kabilarning asarlari xalqimizga ruhiy ma'naviy quvvat bermoqda.

Vatanimizda mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni tiklash milliy ongini o'stirish va o'zlikni anglash eng dolzarb masaladir. Shu sababli madaniy me'rosimiz bo'lmish xalq an'alarini tiklash O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim vazifaga aylandi. Shu nuqtai nazardan bizning bitiruv ishi uchun tanlangan mavzu "Maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish yo'llari" mavzusi dolzarb hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlardan foydalanish mazmuni o'rganish, shakl va vositalarini ishlab chiqishdan iborat

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.**

- Muammoning nazariya va amaliyotdagi holatini o'rganish asosida maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish yo'llarini o'rganish dolzarb muammo ekanligini asoslash.

- Maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini tahlil qilish;
- Maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirishga oid manbalarni umumlashtirish, ilmiy xulosalar chiqarish, uslubiy tavsiyalar berish.
- Milliy qadriyatlar turlari va xususiyatlarini darslar jarayonida, hamda sinfdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirish.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti:** Maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish mazmuni, shakl va uslublari.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti:** Maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishining metodlari:**

Mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish, tahlil etish va umumlashtirish; kuzatish, anketa, test, eksperiment.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslari:** Sharq mutafakkirlarining milliy –axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash haqidagi fikrlari, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risidagi Qonunlari, mamlakatimizdagi ta'lim mazmunini aks ettiruvchi normativ hujjatlar, O'zbekiston respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, hukumatimizning umumiy o'rta ta'lim haqidagi qarorlari, pedagogik va psixologik yo'nalishlarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oyalar tashkil etdi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:**

- O'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar imkoniyatlari aniqlandi;
- O'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlardan foydalanishning ahamiyati va o'rnini o'rganildi;

- O'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar imkoniyatlarini aniqlab, yaxlit tizimi ishlab chiqildi;

- Maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlari, shakl va usullari ishlab chiqildi;

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Shuni alohida aytish kerakki, ishda bayon etilgan nazariy ahamiyat bilan bir qatorda amaliy ahamiyatga ham e'tibor qaratilgan. Mazkur bitiruv malakaviy ishi natijalaridan boshlang'ich sinf o'qituvchilari manba sifatida foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi:** Mazkur bitiruv ishi kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.



# **I BOB. O‘ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDA O‘QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

## **I.1. Boshlang‘ich sinflarda milliy qadriyatlarni shakllantirish mazmuni**

Respublikamizning birinchi prezidenti I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining XVI sessiyasida so‘zlagan nutqida “Ma’naviyatimiz, tariximiz bizning eng katta, ko‘z qorachig‘idek asraydigan boyligimiz. Ular hech qachon eskirmaydi, inqirozga yuz tutmaydi, yaroqsiz holga kelmaydi. Ular odamni, jamiyatni ma’nan yoshartirib turadigan bebaho ne’matlardir. Ana shu ne’matdan har bir kishini bahramand etish biz qurayotgan jamiyatning asosiy maqsadidir,- deb ta’kidlar ekan,- ma’naviyatimiz va ma’rifatimizni yuksak darajaga ko’taraylik. Umumbashariy va milliy qadriyatlarni uyg’unlashtirish negizida milliy ong va demokratik tafakkur tarbiyasini kuchaytiraylik”<sup>3</sup>,- degan shiorni o‘rtaga tashlab, jismonan baquvvat, axloqan yetuk, ruhan sog‘lom avlod tarbiyalashda hech qanday kuch va mablag‘ni ayamasklikni vazifa etdi.

So‘nggi yillarda jamiyatimizda ancha ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi: jumhuriyatimiz mustaqil deb e‘lon qilindi, ona tilimiz Davlat tili maqomini oldi. Millatimiz o‘zligini tanishga yuz tutdi, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an‘analarimiz yana e‘zozlana boshlandi. Xalq ta‘limi tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan hisoblangan boshlang‘ich ta‘lim ishini yanada yaxshilash imkoniyati tug‘ildi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlardan to‘la bahramand bo‘lmagan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishga ongli ravishda hissa qo‘shmagan inson ma’naviy qoshshoqdir. Shuning uchun ham ma’naviy madaniyat manbalarini o‘rganish, ularda olg‘a surilgan g‘oyalarga amal qilish, ularning kelgusi avlodlarga ma’naviy qadriyat sifatida yetkazish jamiyat har bir a‘zosining vazifasi va vatan oldidagi burchidir. Mazkur burchni shakllantirishda boshlang‘ich ta‘lim

---

<sup>3</sup> I.A.Karimov.

muassasalarida tashkil etilgan ma'lum tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadriyat nima? “Qadriyat” so'zining mazmuni sodda va aniq bo'lib hayotda odamlar qadrlaydigan narsadir. Bular atrofimizdagi predmetlar, voqea va hodisalar bo'lib, odamlarning kundalik hayotiy ehtiyojlari va talablarini qondira oladigan yoki qondirishi mumkin bo'lgan masaladir. Biz kundalik amaliy faoliyatimizda atrofimizdagi predmetlar dunyosi bilan munosabatga kirishar ekanmiz, u yoki bu predmetga, hodisa yoki voqeaga ularni biz uchun qadrlil yoki qadrsiz ekanligiga qarab baho berishimiz, ularning talab ehtiyojlarini qanchalik qondira olish xususiyatiga ega ekanligini aniqlaymiz. Bu hol umuminsoniy xususiyatdir.<sup>1</sup>

Qadriyatlar so'zining mazmuni, ahamiyati, xususiyati jihatdan

1. Moddiy,

2. Ma'naviy.

3. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga bo'linadi. Bular hayotda milliy va umuminsoniy shaklda bo'lib shaxsiy, oilaviy, kollektiv, sinfiy ko'rinishlarga ega.

Ma'naviy qadriyatlarning inson va insoniyat jamiyati uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligining mezonl tubandagicha: fanda bu mezon haqiqatdir, axloqda yaxshilik va ezgulik, san'at uchun esa go'zallikdir.

Shaxs hayotida oila a'zosi, millat, ijtimoiy sinf va biror mehnat jamoasining a'zosi bo'lganligi uchun qadriyatlar ham ijtimoiy hayotimizda shaxsiy, oilaviy, milliy, sinfiy, jamoaviy, umuminsoniy qadriyat shaklida mavjuddir.

**Shaxsiy qadriyatlar** deganda, faqat biron-bir shaxsnigina tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lgan zaruriy, foydali, yoqimli, moddiy va ma'naviy predmetlar, voqea va hodisalar, g'oyaviy axloqiy qarashlar, badiiy prinsiplar va ideallar tushuniladi.

**Oilaviy qadriyatlar** esa oilaning barcha a'zolari uchun u yoki bu darajada umumiy bo'lgan, ularning real yoki orzu umidga asoslangan hayotiy ehtiyojlarini qondirish vositalaridir.

O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygan dastlabki paytlaridan boshlab ko'p ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Hayotimizga yangi so'zlar, tushunchalar kirib keldi. Ularning mazmuni va mohiyatini tushunish, jamiyatdagi voqea va hodisalarni to'g'ri anglash va baholash fuqarolar dunyoqarashi va ma'naviyatini yanada shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Istiqlol xalqimiz hayotiga so'z va fikr erkinligi bilan bir qatorda ilgari taqiqlanib kelingan ko'pgina tushunchalarni qaytardi. Endilikda qadriyatlar, mustaqillik, istiqlol, milliy iftihar kabi tushunchalar o'zining asl mazmuniga ega bo'lmoqda. Asrlar davomida shakllanib kelgan va Sobiq Ittifoq davrida yo'qolib borayotgan milliy qadriyatlarimiz qaytadan tiklanmoqda.

Milliy qadriyatlarni asliga keltirish va rivojlantirishda xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlarini, milliy bayramlari, boy qadimiy me'rosi o'zining alohida o'rni va ahamiyatiga ega. Madaniy-ma'naviy me'rosimiz, asriy an'analarimiz avlod-ajdodlarimizdan bizlarga yetib kelgan, bugungi hayotimiz uchun xizmat qilayotgan eng katta ma'naviy boylik, buyuk xazinadir.

Mustaqillik tufayli respublikamiz hayotida, uning ijtimoiy va madaniy javhalarida chuqur o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu tufayli milliy qadriyatlarimizga ham munosabat o'zgardi.

Zero mustaqillik yangi jamiyatni shakllantirish yangi davlatni barpo etish bilan birga ta'lim-tarbiyada yangi jamiyat fuqarolarini kamol toptirishdek katta mas'uliyatni ham qo'yadi. Ana shu yuksak vazifani hal etishda mustaqillik tamoyillari belgilandi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga asoslanib, jamiyatni yangilash tariximiz, ma'naviy me'rosimizni tiklash, tarbiya masalalarini hal etishga jiddiy kirishildi.

Ma'lumki qadriyatlarimiz, shuningdek milliy-axloqiy tarbiya mazmunini aks ettiruvchi ma'rifiy qadriyatlarimizning umumjahon mulkiga aylanib ketgan. Biz bugungi kunda ana shu qadriyatlarimizni hozirgi zamon ilmiy pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoni iste'molga kiritishimiz muhimdir. Eng qadimgi ma'rifiy

yodgorliklar, islomiy qadriyatlar, mutafakkirlarimizning ta'limiy-axloqiy asarlari yangi jamiyat fuqarosini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki har qanday jamiyat kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim olishi va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq. Kamolot pog'onasiga ko'tarilgan avlodgina mamlakatning, xalqning tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shu bois yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardandir.

Hamma davrlarda ham o'qituvchilar yoshlar axloqini, ta'lim va tarbiyasini davr talablari va ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilganlar. Zero, millat mavjud ekan, uning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq bo'lgan axloqiy tarbiyasi, mazmuni va yo'nalishi bo'yicha o'ziga xos milliy usullar bilan takomillashib boradi.

Milliy mustaqillik oila va xalq ta'limi tizimi oldiga zarurat yuzasidan juda katta talablar qo'ydi. Chunki unutilayotgan qadriyatlarimizni tiklash, mustaqillik mafkurasini yaratish zamon talabiga aylandi. Ayniqsa bu sharoitda maktab ma'naviy ma'rifiy tadbirlarda milliy qadriyatlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashni tasavvur etish, unda ota-bobolarimizdan me'ros bo'lib qolgan axloqiy fazilatlarni egallashning naqadar katta ahamiyatga molik ekanligini milliy-nazariy jihatdan asoslay bilish juda muhimdir.

Har bir ruhan sog'lom kishida o'z qadr-qimmatini saqlash, o'zini hurmat qilish tuyg'usi mavjud. Millatni o'z-o'zini anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlari ham, milliy qadriyatlari ham kuchayib mustahkamlanib boraveradi.

Xalqimiz madaniy me'rosi, an'analari, urf-odatlarini bizlar uchun barcha ma'naviy boyliklarning tarkibiy qismi, inson aql-idroki va tafakkurning buyuk yutug'i hamdir. Har bir millat va elat ajdodlari yaratgan bilim boyliklaridan, tajriba va tarixiy saboqlardan, odob-axloq, ta'lim-tarbiyaga oid o'g'itlari va yo'l-yo'riqlaridan foydalanadi, bularsiz yashay olmaydi.

O'tmishimizni qanchalik yaxshi bilsak va e'zozlasak, hozirgi davrni, mustaqilligimiz istiqboli va ahamiyatini shunchalik chuqur va mukammal tushunamiz.

Xalqimizning madaniy va ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, odilona egallash va rivojlantirish hozirgi ajdodlarning vazifasidir. Gap o'tmish madaniy-ma'naviy boyliklarga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi, yuksak bosqichga ko'tara bilishdir.

Erishilgan mustaqillik xalqimiz madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga yo'l ochib berdi. O'zbekistonda hozir madaniy me'rosimizga alohida e'tiborlik bilan qaratilmoqda, ko'plab ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar, qadimiy qo'lyozmalar ketma-ket nashr qilinib turibdi. Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi.

Sharq xalqlarning bir necha ming yillar mobaynida yaratgan bebaho odob-axloq qoidalari, qadriyatlari mavjud. Ularni qaytadan tiklash va hayotga tadbiiq etish muhim masalalaridan biridir.

Odob-axloq, ta'lim-tarbiya sohasidagi qadriyatlarimiz bizlar uchun faqat milliy me'rosgina emas, balki inson ma'naviy hayoti borasida katta o'rin olish muhim bo'lgan ma'naviy boyliklar hamdir. Ana shu boylik bilan yosh avlodimizni tanishtirish va odob axloq normalariga rioya qilish mustaqilligimizni mustahkamlaydi, odamlarda vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixorini o'stirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlaridan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlardan biri ota-onani e'zozlash, hurmat qilishdan iboratdir. Ota-onani qadrlash, ularning xizmatida bir umr bo'lish, duolarini olish, har bir inson uchun ham farz, ham qarz.

Afsuski, keyingi paytlarda ayrim yoshlarimiz bu ajoyib qadriyatlarimizni unuta boshlashdi. Ba'zi yoshlarda kattalarni hurmat qilish, ularni gapiga quloq solish, maslahat olish singari yuksak ma'naviy fazilatlar yo'qolib ketayotganligi sezilmoqda. Tadbirkor yoshlarimizning qo'llariga pul tushib ota-onani

mensimaslik, hurmat qilmaslik, beso'roq u yoki bu ishga qo'l urishlari shular julasidandir.

Shuni aytish kerakki, taraqqiyotning muayyan bosqichida ayrim yoshlarimiz milliy qadriyatlarimizni chuqur o'rganishi, tahlil etish, mohiyatini to'la aniqlashdan uzoqlashib ketmoqdalar. Shu kabi xarakatlarga chek qo'yish hamda yoshlarimizni milliy urf-odat, an'analarimizni, madaniy me'ros bilan har tomonlama tanishtirish muhim masalalardan biriga aylanib qoldi.

Milliy an'ana, milliy madaniyat, milliy qadriyatlarimiz o'zining qaddini rostlay boshladi. Yoshlarda milliy iftixor, milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahamiyat berila boshladi.

Hozirgi paytlarda taraqqiyotimiz taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Aqliy zakovat, ruhiy ma'naviy kamolot, insofu-diyonat, muruvvat, mehr-oqibat bular ma'rifatli, ma'naviyatli insonning asosiy fazilatlaridan. Ana shu fazilatlarni yoshlarimizda yanada shakllantirish olimlar, ziyolilar, o'qituvchilar, tarbiyachilar zimmasiga yuklanadi.

Biz kelajagi buyuk davlatni barpo etmoqchi ekanmiz, har tomonlama rivojlangan, barkamol, aqli milliy-axloqiy qadriyatlarimizni hurmat qiladigan insonni tarbiyalashimiz zarur.

Qadriyatlar juda sermazmun va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalarining yig'indisini ifodalaydi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" kitobida "Jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekistonning fuqarosi turadi",- deb ta'kidlaganlar.

O'zbekiston rahbariyati tashabbusi bilan bu borada dastlabki jiddiy qadamlar qo'yildi. Inson manfaatlari bunday tashabbuslardan biri "Sog'lom avlod uchun" davlat dasturini tashkil qilinishi, 1997 yil- "Inson manfaatlari" yili deb e'lon qilingan, bu bejiz emas, albatta. Shunday qilib, jumhuriyatimizda amalga

oshirilayotgan islohotlarning hammasi insonga bo'lgan munosabatlar yaxshilanayotganligining amaliy isbotidir.

Milliy qadriyatlar- murakkab ijtimoiy ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini iqtisodiy, siyosiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvur faqat go'yagina emas, balki tuyg'u hamdir. Bu tuyg'u kishilarda millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va xususiyatini tushunish, his qilish shaklida mujassamlashgan bo'ladi. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarni anglashni tasavvur qilish qiyin. Toki millatlar, milliy mafkuralar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy his tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlardan mahrum qilish eng katta jinoyatdir.

Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda axloq ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalalikdagina emas. Axloq – bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani.

Ma'lumki, insonparvarlik g'oyalari oziqlangan Xoja Ahmad Yassaviy, Xo'ja Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi zotlar asos solgan muqaddas g'oya tariqatlarning vatani ham Turkiston zaminidir. Hamma gap mana shu milliy qadriyatlarda, aniqrog'i, ularni tobora uyg'unlashtirib hayotga tatbiq etishda.

Milliy qadriyatlar shu millat a'zolari tomonidan ming yillar davomida yaratilgan moddiy-ma'naviy, madaniyat boyliklari; milliy til, milliy ong, uning psixik ifodasi, xarakteri, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, axloqiy prinsiplari, urf-odatlarini, an'analaridir.

Mustaqil Respublikamizda yuz berayotgan yangilanish va poklanish xalq ta'limi tizimining mazmuni va mundarijasini ham yangidan shakllantirish va takomillashtirishni taqozo etadi. Bu ko'p jihatdan uning boshlang'ich bosqichi bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'sir ko'rsatishga bog'liqdir. Bolalarni

ilk yoshdan boshlab ularga o'zbek xalqining milliy urf-odatlarini, an'analarini va insoniy qadriyatlarini asosida tarbiya berish zarurati tug'ildi.

Har bir millat, elat va etnik guruhning o'ziga xos udumlari, urf-odat, an'ana va marosimlari bor.

Odat - xalqning ichki munosabatlarini tartibga soluvchi mezon va an'analar majmuasidir. U avloddan-avlodga me'ros bo'lib o'tadigan va muayyan jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan hatti-harakat, xulq-atvor usuli "Odat" so'zi udum, urf an'ana va marosim tushunchalari o'rnida qo'llaniladi.

Marosim odatning amaliy ifodasi, ko'rinishidir. Har bir odat, marosim va an'ana o'zining tarixiy ildiziga, iqtisodiy zamiriga, g'oyaviy asosiga ega. O'zbek xalqi juda ham boy, xilma-xil odat va an'alariga ega. Bularni ijtimoiy munosabat turlariga qarab shartli ravishda tabiat, madaniyat va sof diniy an'analarga bo'lish mumkin.

Milliy urf-odatlar, an'analar tarixiy ijtimoiy kategoriya bo'lib, ular muayyan millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida avloddan-avlodga o'tib kelgan, ishlab chiqarish, tirikchilik, maishat, madaniyat, xulq-atvor va boshqalarda o'ziga xoslikka ega bo'lib, rasm-rusm va odatga aylangan munosabatdir.



## **I.2. SHarq mutafakkirlarining milliy –axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash haqidagi fikrlari**

Sharq xalqlarining bir necha ming yillar mobaynida yaratgan bebaho odob-axloq qoidalari, qadriyatlari mavjud. Ularni hayotda o'rganish, tiklash va hayotga tadbiq etish muhim masalalardan biridir.

O'zbekona milliy axloqda ota-bobolarimizning nodir qo'lyozmalari, tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan saboqlari va bizgacha doimo madad bo'lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Ularning sharofatlari tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avlodlardan-avlodga o'tib kelmoqda, chunki bir tomchi bo'lsa ham ularning qoni tomirimizda oqmoqda. Ana shu qonni jo'sh urdirmoq bilan yuraklarimiz uyg'oq, dilimiz ravshan, tafakkurimiz munavvar. Shunday kayfiyat bizning dilimizda ko'p yillardan beri yashirinib kelinar edi. Bu haqda hurmatli Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi", - deb o'rinli ta'kidlagan edi. Haqiqatan ham ajdodlarimizning yaratgan ma'naviy me'rosini o'rganadigan va uni amalda qo'llaydigan vaqt yetdi.

Endilikda milliy istiqlol tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Ulardan o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda foydalanish muhim dolzarb masalalardan biridir. Xalqimizning shunday milliy qadriyatlari mavjudki, ular o'zbekligimizni namoyon qilib, qadrimizni boshqa xalqlar oldida ko'tarib turadi va milliy o'ziga xosligi bilan ajralib turishining sababi ham ana shunda.

O'quvchilar ongidagi, ularning ma'naviyatidagi yuz beradigan o'zgarishlar o'z-o'zidan va birdaniga sodir bo'lmaydi. Buning uchun qandaydir bir rahbar yoki muallimga muhtojlik seziladi. Haqiqattan ham o'quvchilardan ma'naviy axloqiy sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirishda va tarbiyalashda muallimning xizmatlari beqiyosdir.

Maktabda o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash va unda ota-bobolarimizdan me'ros bo'lib qolgan axloqiy fazilatlarni singdirishning naqadar ahamiyatli ekanligini va ularga ilmiy- nazariy jihatdan ma'lumotlarni berish muhim pedagogik muammolardan biridir.

Hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan ko'p tadqiqotlar, sotsiologik kuzatishlar va maktablardagi, oliy va o'rta pedagogik bilimgozlardagi biz olib borgan kuzatishlar shaxsni axloqiy shakllanishida o'zbek xalqi milliy an'analarning, xususan mashhur mutafakkirlarning milliy tarbiya to'g'risidagi tarbiya g'oyalari rolining muhimligini yaqqol ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga sharq xalqlarining boy milliy-ma'naviy an'analari to'g'risida qiziqarli suhbatlar, madaniy-ma'naviy tadbirlar tez-tez o'tkazilib turilishi natijasida maktab o'quvchilari va ularning ota-onalari turli hasharlarda hamda ommaviy tadbirlarda faol qatnashadilar.

Sharq mutafakkirlarining g'oyalari ular yaratgan asarlarda, maqollarda, hikmatli so'zlari orqali bolalar ongiga singdirilib boriladi. Bunda albatta tarbiyaviy ta'sir kuchi, eng avvalo o'qituvchi va tarbiyachi mehnatiga, bilim saviyasiga va mahoratiga bog'liq bo'ladi. Umuman kuzatishimiz shuni ko'rsatadiki, jumhuriyatimizdagi maktablar barcha darslarida, sinfdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, turli to'garaklarda o'zbek xalq tarbiyatshunosligi va sharq mutafakkirlarining hikmatli so'zlaridan o'quvchilarni milliy tarbiyasini yaxshi yo'lga qo'yishda muvaffaqiyatli yutuqlarga erishish mumkin.

O'zbek xalqining axloqiy mezonlari uning yillar davomida erishgan ulkan ma'naviyati bilan uzviy bog'langan. Ana shuning uchun, axloqiy tasavvurlarimiz, axloqiy qadriyatlarimiz millat uchun, uning obro'yi va istiqboli uchun xizmat qilsagina, o'z o'tmishini, ma'naviy me'rosini, qadriyatlarini unutmaydi. Shuning

uchun mazkur mavzu g'oyasi va mazmunini boshlang'ich sinf o'quvchilariga mumkin qadar kengroq targ'ibot qilish, ularning qalbiga, shuuriga ta'sir etish muhim pedagogik muammo hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, o'zbek xalqining qadimgi urf-odatlari, ibratli an'analari, udumlari, to'y va boshqa marosimlari o'sha davr yozma adabiyotida saqlanib qolgan. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarimiz qayta tiklanayotgan hozirgi davrda bu materiallarni o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda tariximiz, turmush tarzimizning o'ziga xos xususiyatlarni sharhlash va o'sha davrlarda yashab ijod etgan buyuk qomusoy olimlar, mumtoz adabiyot namoyondalari, mutafakkirlar ijodi namunalaridan parchalar olib mazkur bitiruv malakaviy ishimizga kiritishni lozim topdik.

Sharq mutafakkirlar ilmiy me'rosida ta'lim-tarbiya masalalari o'rin egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berganlar. Zero yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajagi taqdirini belgilaydigan, ularni ijobiy mezon bilan qurollantiradigan sifatlar bo'lganligi uchun ham mutafakkirlar bu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar. Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Qoshg'aroy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Umar Xayyom, Ahmad Yugnakiy, Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Devoniy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash masalalari o'rta qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Sharq mutafakkirlari qomusiy asarlarida va maxsus odob-axloqqa bag'ishlangan risolalarida o'zlarining pedagogik qarashlarini ifodalaganlar va ular pedagogik hamda falsafiy-didaktik xarakterga egadirlar. Bular jumlasiga Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Kaykovusning "Qobusnoma", Shayx Sa'diyning "Bo'ston va Guliston", Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Hayratul Abror" va "Mahbubul qulb" kabi pandnoma, nasihatnoma tarzida yozilgan asarlari kiradi. Shuningdek,

o'tmishda diniy tasavvufiy asarlar ham yozildiki, ularda bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari ilgari surilgan bo'lib, ular ma'naviyatimiz tarixida Ahmad Yassaviy, Az Zamaxshariy, Sulaymon Boqirg'oniy, Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro va boshqalar shular jumlasidandir.

Mutafakkirlarimizning ilmiy me'rosini, xususan pedagogik me'rosining o'rganilishida o'zbek olimlaridan M.M.Xayrullayev, A.Qayumov, A.Xayitmetov, A.Irisov, A.Bobojonov, A.Zununov, T.Zunnunov, B.To'zliyev, A.K.Munavarov va boshqalarning xizmati kattadir. Ana shu olimlarimiz mehnati tufayli sharq xalqlarining ilmiy me'rosi ancha chuqur tadqiq etilib, qator monografiya va risolalar chop etildi. Yuqoridagi o'zbek olimlar tajribasini o'rganib, tahlil qilib, sharq ayrim mutafakkirlarining bola tarbiyasi haqidagi qarashlarini ma'lum xulosalarga kelishini maqsad qilib qo'ydik.

Ma'lumki, qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyalarni ilgari surgan edilar. Bu g'oya fransuz xayoliy sotsialistlari Sen-Simon, Sharl'-Fure va David Rekordlarning asarlarida keyinchalik rivojlantirildi. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Shunga ko'ra, bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oya ilgari surilgan. Ammo sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-ona, maktab va jamoatchilik hamkorlikda shug'ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Umuman olganda bola tarbiyasi masalasi juda qadimda mutafakkirlarni qiziqtirib kelgan, ular bu masalaga hayotiy faoliyatning muhim bir tomoni sifatida qaraganlar va uni hal etishni o'zlarining vazifasi deb hisoblaganlar.

Eramizdan avvalgi 528-829 yillar orasida yashab ijod qilgan Zardusht sharqning birinchi faylasufi, notig'i, shoiri, donishmandi, xalq dohiysi hisoblanadi. Zardusht tomonidan yaratilgan "Avesto" kitobida ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarini ko'rishimiz mumkin.

"Avesto"da ta'kidlanishicha "Tarbiya hayotning eng muhim tirtigagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u

avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin". Uni yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish uchun daraxt ko'chati o'tqazishga, uy-ro'zg'or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart.<sup>4</sup> Zardushtning fikricha: «Yaxshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi. Hayot qadriga ham yetmaydi».

U yuqoridagi fikrini davom ettirib, yanada chuqurroq g'oyani ham ilgari surdi. Inson nafaqat mehnati tufayli o'zini va oilasini boqadi, balki unda yerga va yurtiga bo'lgan muhabbati ham paydo bo'ladi. "Har bir inson o'zi o'sib ulg'aygan (zaminni) mamlakatni eng yaxshi va go'zal mamlakat deb tushunmoq kerak". Uning bu fikrlaridan har bir inson faqat o'zigina emas, balki farzandlarini ham mehnatsevar qilib tarbiyalashi lozim. Chunki mehnatsevar bo'lmasdan turib, o'z yerini, o'z Vatanini seva olmasligi tabiiy.

Shuningdek, "Avesto"da shunday fikrlar uchraydiki, ular bugungi kunda ham tibbiyot fani va olimlari tomonidan to'la e'tirof etilmoqda. Masalan, "Avesto"da qarindoshlarning o'zaro oila qurishi man etiladi. Bundan tashqari, mazkur asarda, bola tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati masalasi ham o'z aksini topgan. Unda ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan. Zero bir necha farzandlarni tarbiyalagan oilalar mukofot olishga sazovor deb ko'rsatib o'tiladi.

Shunisi e'tiborga molikki, "Avesto"da ota-onani o'z farzandlariga "...Mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan! Haqiqatan ham sening yoshingda turli xil ziroatlarni olib o'tadilar, bu noz-ne'matlarning barchasi mehnat qilayotgan, to'q va farovon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadul-abad shunday bo'lajak!", deb uqtirgan nasihati bundan bir necha ming yillar ilgari bayon qilingan bo'lsa ham hozirgi kunda hech ahamiyatini yo'qotmayotgan bebaho qadriyatli so'zdir. O'sha davrda aytilgan bu so'z hozirgi davr bilan hamohangdir. Inson mehnatsiz hech narsaga erisholmasligi, mehnat qilganlar yoki qilayotganlar

har doimo to'q va faravon yashashlari mumkinligi haqidagi g'oyalar singdiriladi. Dangasalik, ishyoqmaslik qattiq qoralanadi. "Avesto"da bolalarning jismoniy, ekologik, mehnat, axloqiy, estetik, diniy, tejamkorlik singari tarbiyaning tarkibiy qismlarini singdirishga harakat qiladigan qonun qoidalar yig'indisi hisoblanadi.

Hadislarni to'plash, ularni sharhlash va targ'ib qilish bilan shug'ullanuvchi olimlarni muhaddislar deb ataganlar. Ana shu muhaddislardan Imom Muhammad al Buxoriy va Imom at Termiziylar musulmon dunyosida mashhurdir. Ularning me'rosida ham ta'lim-tarbiyaga oid ko'pgina qimmatli ma'lumotlar mavjudki, ulardan axloqiy qadriyat sifatida foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Bizga tarixdan ma'lumki Zardushtiylik dinidan so'ng islom dini hukmronligi boshlanadi. Islom dinining tarqalishi kengaya borganligi sababli, uning qonun qoidalari, g'oyaviy fikr-mulohazalarining kelib chiqishi tabiiy edi. Shu sababdan payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayotlik chog'larida aytgan so'zlari, qilgan ishlari, yo'l-yo'riqlari, pand-nasihatlari, uning hadislari va sunnatlari hisoblanib, islom ta'limotida "Qur'oni Karim"dan keyin ikkinchi manba hisoblanadi.

Imom al Buxoriyning "Al jome'- al sahih", "Katta tarix", "Kichik tarix", "Namozda ikki qo'lni ko'tarish", "Imom ortida turib qiroat qilish", "Odob durdonalari", "Zakovat kitobi", "Ona-onani hurmatlash" kabi katta va kichik hajmdagi bir qancha kitoblari yozilgan. Al- Buxoriy bir o'rinda: «Ota-ona farzandiga zug'm qilsa ham farzandlari ularga yaxshilik qilaverishi kerak», deb ta'kidlasa, boshqa bir o'rinda "Qaysi bir musulmon farzand savobi umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Oллоh Taolo unga jannatning ikkita eshigini ochadi, deb yozadi. Uning fikricha, ota-onani rozi qilganni umri uzoq bo'ladi.

Bola tarbiyasi masalasi Abu Bakr Ibn al-Abbos al Xorazmiy qarashlarida ham mavjud. Uning aytishicha "Ota-onalar ikki xil: tug'ilish onasi va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli". Shunga ko'ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhimdir. Uning quyidagi so'zlari ancha ibratlidir.: "Zamondan yaxshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim". Bu so'zlardan bir tomondan ijtimoiy muhitning

bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan, inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini anglaymiz.

Abu Ali ibn Sinoning ilmiy me'rosida ham bola tarbiyasi muhim o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida eng muhimi bola ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmatbaho fikrlarga asoslangan. Ularning hammasi bir butun bo'lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va ma'naviy barkamol insonni shakllantirish haqidagi g'oyaga borib taqaladi.

Ibn Sinoning "Inshoat", "Donishnoma", "Hayi ibn Yaqzon", "Saloman va Ibsol", "Tib qonunlari", "Tadbir ul-manozil" kabi asarlarida tarbiyaning barcha shakllariga oid qarashlari mavjud. Bu qarashlar yuz yillar davomida avlodlar uchun tarbiya maktabi bo'lib kelmoqda.

Ibn Sino bola tarbiyasini ancha murakkab va nozik hisoblab, uni bolaning yoshligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalamiz "Alla" ikki vazifasini bajarib,

birinchisi, uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag'ishlanadi;

ikkinchisi, beshikni bir maromdan tebratishda onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu-umidi yurak to'ridan otilib chiqadi. Bu o'ziga xos qo'shiq bolasiga qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga, butun shuuriga singib boradi. Shu tarzda bolada o'zi ham anglamagan holat paydo bo'ladi. U asta-sekin bu yorug' olamni anglay boshlaydi. Ana shu anglashdan o'rganish boshlanadi. Xuddi shu o'rganish tarbiyalanishdir.

Ibn Sino "Tib qonunlari" nomli asarida bola tug'ilmasdan turib g'amxo'rlik qilish uchun onaning salomatligi, jismoniy va ruhiy pokligi zarurligini ta'kidlab, shaxs salomatligini saqlashni faoliyatning boshqa tomonlari bilan birga olib borish g'oyasini ilgari suradi.

Ibn Sino yaxshilik va yomonlik tushunchalariga bo'lgan munosabati Farobiy va Beruniylar fikriga hamohang bo'lib, u ham irsiyat, muhit va ta'lim tarbiyaning ta'siri bola tarbiyasi uchun birdek muhim deb hisoblaydi. U yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, muhit, odatlanish natijasida vujudga kelishini

qayd qilib o'tadi. Bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda mehnatsevarlikning roliga alohida urg'u berib, ota-onalarni farzandlariga nisbatan kasb-hunar o'rgatishga chaqiradi. Mehnatni ulug'laydi. Mehnatsiz hayot kechirishning bolaga bo'lgan salbiy ta'sirini ko'rsatib beradi.

Ayniqsa, Ibn Sino aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi va ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi fikrlar bugungi kunda ham ijtimoiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda hamda milliy qadriyat sifatida e'tiborga loyiqdir.

Abu Rayhon Beruniy "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "E'tiqodlar va dinlar haqida" kabi ko'pgina asarlarida bolalarning axloqiy tarbiyasiga oid qimmatli fikrlarni yozadi. Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o'rtaga tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartiblilik mavjud ekan, u yerda ma'naviy poklik ham bo'ladi. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligining bir butunligi to'g'risidagi g'oya bilan bog'liqdir. Bu narsa bola tarbiyasida jismoniy sog'liq bilan ma'naviy kamolot o'rtasidagi o'zaro muvofiqligi, mutanosiblik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir.

Beruniyning yozishicha: «Kishilar hayotda turli holatda bo'ladilar va turlicha harakat qiladilar, ularning ayrimlari bilan maqtanadilar, boshqalari bilan qoralanadilar. Bularning hammasi bolalar ko'z o'ngida yuz beradi. Buni to'la his etgan ota-ona ehtiyot bo'lmoqlari lozim. U ota-onalari bilan harakat qilishlari turli o'yinlar uyushtishlari, ular bilan birga o'zaro suhbatlar o'tkazishlari maqsadga muvofiq» deb maslahat beradi.

Beruniy ota-onalariga qarata bolani mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g'azablanishdan, qo'rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishni aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiradi. Yaxshi xulqlarning paydo bo'lishi, bola ruhiyatiga ta'sir qilibgina qolmasdan, uning fiziologik o'sishiga ham yordam beradi. Yomon xulq esa turli mijoz buzilishlariga ham olib keladi. Aksincha, bola organizmida o'zgarishlar uning ruhiyatidagi, hatti-harakatdagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola



xulq atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi.

XI asrda yashab ijod etgan mashhur mutafakkir Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" nomli asarida keng to'xtalib o'tgan. U o'z davrida va o'zidan oldingi mutafakkirlar o'rtaga surgan barkamol insonni tarbiyalash g'oyasini asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Mutafakkir "Qutadg'u bilig" asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib shunday deb yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqlli, kuchli bo'lsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug' bo'ladi". U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor beradi. "Kimning o'g'il-qizi erka bo'lsa, deb yozadi u, unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ysa, bolada gunoh yo'q, barcha jaf o'taning o'zida; o'g'il qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarni nazorat qilib, turli hunarlarni o'rgatsa, ular ulg'aygach o'g'il-qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvori go'zal bo'lsin",- deb ota-onalarga va murabbiylarga maslahat beradi.

«Bola asta-sekin hunar o'rganib hayotdan ta'lim olib bilimdon bo'ladi, chinakam insoniy go'zallikka erishadi. Inson faqat farzandlariga yaxshilik urug'ini sochibgina qolmasdan, bu urug'ni parvarish ham qila bilishi zarur. Bu narsa ular tarbiyasida zohir bo'ladi. Mutafakkir yaxshilik va ezgulik chinakam insonlarning oliyjanob fazilatlaridir degan xulosaga kelar ekan, undan olamda agar yaxshi kishilar bo'lmaganida haqiqiy insoniylik ham bo'lmas edi», degan falsafiy xulosaga keladi.

Yusuf Xos Hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. U "Beldan madori, tandan quvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni talab qiladi". Uning ta'kidlashicha, agar insonning o'zida go'zal fazilatlar bo'lsa, ularni boshqalarga o'rgatish lozim. Lekin odob-axloq, rasm-rusm, odat va irodani hosil qilish uchun zo'r kuch va harakat kerak bo'ladi. Bu narsa ta'lim-tarbiya natijasida paydo bo'ladi. Bu oliyjanob vazifani bajarish esa ota-onaning zimmasidadir. Chunki Yusuf Xos Hojib zamonasida ijtimoiy tarbiya muassasalari rivojlangan

bo'lib, bola, asosan oilada tarbiyalanib, shaxs sifatida shakllanar edi. Tarbiyashunos olimning g'oyalari va yaratgan asari bugungi kunda ham ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma'naviy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy me'rosida ham munosib o'rin egallaydi. U o'zining qator asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g'oya ekanligini o'rtaga tashlaydi. "Ota-ona farzandlar uchun eng aziz va mo'tabar insonlardir. Ularni hurmatlash, avaylab-asrash farzandlarning muhim burchidir. Ota-onaning buyruqlarini darhol bajarish, ularning ko'nglini shod etish farzandning vazifasi. Ota-ona farzandiga yaxshi xulq va odob o'rgatadi. Ota-ona ruxsatisiz uzoq joylarga ketmang, ularga yolg'on gapirmang, hamisha muloyim, yoqimli gapiring. Uyda va maktabda yaxshi tarbiya topib, go'zal xulqlarni o'zlashtirib borsangiz, komil inson bo'lib yetishasiz va ota-onangizga rahmat keltirasiz",- deb farzandlariga nasihat qiladi va buni quyidagi she'riy satrida ham ifodalaydi.

Boshni fido ayla ato boshig'a,  
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.  
Tun-kunigga aylagil nur dosh,  
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Ya'ni Navoiyning ta'kidlashicha, ota-onani hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkalasiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi.

Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kunga nur berib turgan birisini oy, birisini quyosh bil, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatini sen adab bilan bajar, "adab" so'zidagi "dol" kabi qomatingni xam qil.

A.Navoiy oldidagi ayrim illatlarni va o'zaro kelishmovchiliklarni bola tarbiyasiga salbiy ta'siri, uning buzilishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar haqida ham o'z fikrini bildiradi. Ya'ni yaxshi va yomon xulqlar va ularning kelib chiqishi

sabablarini ko'rsatib beradi. Farzandda paydo bo'ladigan yomon xulqlarning oldi olinmasa, u bora bora illatga aylanadi. Bu o'rinda uning mashhur baytini keltirmoq kifoyadir.

Kuchuk bilan xo'tikni qancha qilsang tarbiya,

It bo'lur, eshak bo'lur, bo'lmaslar also odami.

A.Navoiyning a'kidlashicha "Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik-zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Tarbiyangni ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoye ketkazma",- deb ta'kidlagan. Yuqoridagi buyuk allomalarimizning qoldirgan ma'naviy me'roslari bundan bir necha yillar oldin bayon qilinishiga qaramay bugungi kunga kelib ham o'z ahamiyatini, qiymatini yo'qotmay kelgan milliy qadriyatlarimizdandir. Bu qadriyatlarimizni bugungi kunda yosh avlodga yetkazish, shakllantirish, ota-onalarning, o'qituvchi va tarbiyachilarning muqaddas vazifasi, burchi hisoblanadi. Chunki buyuk allomalar hayoti, ijodi, ular qoldirgan bebaho madaniy-ma'rifiy me'rosi yosh avlod uchun ibrat, namuna ekanligi, ularning ta'lim tarbiyaga oid ma'rifiy ta'limoti yoshlarni barkamol inson qilib, ularni ona-Vatanga, oilasiga, millatiga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalashda, ularni iymonli, e'tiqodli, mehr-oqibatli, insof-diyonatli, odo-axloqli, oqil va odil inson qilib tarbiyalashda, o'zligini anglashda benazir ma'naviy qadriyat bo'lib qolgan va bundan keyin ham shunday bo'lmog'i lozim.

Milliy qadriyatlar - voqea-hodisalarni bilish, tahlil etish, ularga baho berishga imkoniyat yaratib, bir qator ilmiy, tarbiyaviy va amaliy vazifalarni ham bajaradi.Ulardan eng muximlarini qayd etmoqchimiz:

-yoshlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin fikrlashni shakllantirish;

-yoshlar ongida milliy totuvlik hamjihatlikni istiqbolimiz yo'lidagi eng katta g'oyalardan hisoblanishi, nosog'lom mahalliychilik, urug'-aymoqchilik deb ataladigan illatlardan holi etishni shakllantirish;

-hayotga endi qadam qo'yayotgan yosh avlodning dunyoqarashiga qadriyatlar orqali yangicha ma'no va mazmun baxsh etish, ularda faol hayotiy pozisiyani, ishonch va e'tiqodni shakllantirish;

-jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, yoshlar ongiga Vatan taqdiri uchun mas'ullik, yagona Vatan tuyg'usini mustahkamlash;

-istibdod davri asoratlari, qullik va mutelik kayfiyatlarining ongimizda, tafakkurimizda saqlanib qolayotgani sabablarini tahlil etish, ularni bartaraf etish yo'llarini topish zarurati bilan bog'liq vazifalarni hal etishdan iboratdir. Demak yangicha fikrlaydigan, mutelik tuyg'usidan xoli bo'lgan, o'zligini anglagan, avlod-ajdodlarini, madaniy merosini yaxshi bilgan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash qadriyatlarining muhim vazifasidir. Milliy tarbiya - xalqning o'z-o'zini saqlash va istiqbolini ta'minlash omilidir. Avvalo, u faxrlinish, milliy- tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush- tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'grisida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik millatidan qat'i nazar, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehтиrom — O'zbekiston yoshlariga xos fazilatlardir. Yoshlarning turmush tarzida, ruhiyatida, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllanishda, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar bilan yaqin munosabatda ham shu omil namoyon bo'ladi. Mazkur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan sharq mutafakkirlari va faylasuflarining jahon madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan g'oyat katta hissalar ham bu yerda yashayotgan odamlar turmushining barcha tomonlariga sezilarli ta'sir o'tkazgan. O'tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma'naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi. Ular hamon ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarimiz o'z xalqi, mamlakatining tarixini, milliy madaniy merosini, qadriyatlarini toptatmasligi, o'ziga xoslikni yo'qotmasligi uchun ham milliy qadriyatlarni o'rganishi, bilishi kerak bo'ladi.

### **1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishning amaldagi holati**

Biz boshlang'ich ta'lim dasturlari, darsliklari, konsepsiyasi, davlat ta'lim standartlarini o'rganish va o'qituvchilarning ish tajribalarini kuzatish, darslarni tahlil etish natijasida boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda **milliy qadriyatlarni** shakllantirish tizimi va ularning mazmunining amaldagi holatini o'rganish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirdik. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda vatanga muhabbatni tarbiyalaga alohida ahamiyat berish bilan birga uning o'zi insonparvar saxiy inson sifatida maktabdagina emas, balki o'quvchilar jamoasi o'rtasida ham hurmat qozonadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarning o'rnini aniqlash maqsadida Termiz shahar 16-umumta'lim maktabida tajriba sinov ishlarini olib gborishga qaror qildik.

SHu maqsadda odobnoma va o'qish darslarida, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda milliy qadriyatlarni shakllantirish yo'llarini o'rganish darajasini aniqlash, o'rganish maqsadida o'qituvchilardan so'rovnoma o'tkazdik.

Ushbu maqsadda Termiz shahridagi 16- umumiy o'rta ta'lim maktabida tajriba-sinov ishlarini olib bordik va dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarini kuzatdik. Tadqiqot davomida kuzatish, anketa so'rovlari, suhbat, pedagogik eksperiment kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalandik. Anketa so'rovlarida jami 22 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirok etdilar. Ularga quyidagi anketa savollarini tarqatdik:

1. Milliy qadriyatlarni shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratyapsiz?
2. Sizningcha boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonida tarbiyaviy tadbirlarg orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish mumkinmi?
3. Boshlang'ich sinflarda odobnoma va o'qish darslaridan tashqari yana qanday usul va shakllarda milliy qadriyatlarni shakllantirish mumkin?
4. Milliy qadriyatlarni i shakllantirishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlardan foydalanishning yutuqlari nimadan iborat?
5. Boshlang'ich sinflarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning samaradorligini oshirish uchun yana nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz?
6. Milliy qadriyatlarni shakllantirishda ota-onalar, maktab, mahalla hamkorligini qanday amalga oshirish mumkin?

1. So'rov natijalari tahlili ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan 14 nafari (63,6 %) milliy qadriyatlarni shakllantirish yo'llari haqida aniq ma'lumotga egalar va 6 nafar (27,2 %) o'qituvchi umumiy holda fikr bildirdilar, qolgan 2 nafar (9 %) o'qituvchi esa faqat boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan milliy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi manbalardan foydalanishlarini ta'kidladilar.

1. 2. Sizningcha boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonida tarbiyaviy tadbirlarg orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish mumkinmi?

-degan savolga 22 nafar o'qituvchidan 15 nafari (68 %) boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni shakllantirishda urf-odatlar, an'analarni o'rganish samarali ta'sir ko'rsatadi deya hisoblaydilar va maktab amaliyotida keng qo'llash tarafdori ekanliklarini aytib o'tdilar. 5 nafar (22 %) o'qituvchi boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlarni o'rganish darajasini oshirish kerak deb hisoblasalar, faqat 2 nafar (9 %) o'qituvchigina milliy qadriyatlarni o'rganishdan foydalanishda darsliklar etarli deb ta'kidlab o'tdilar.

1. 3. Boshlang'ich sinflarda odobnoma va o'qish darslaridan tashqari yana qanday usul va shakllarda milliy qadriyatlarni shakllantirish mumkin?- degan savolga ko'pchilik o'qituvchilar 12 nafar-54,5 % tarixiy obidalarni o'rganish milliy qadriyatlarni shakllantirishda asosiy manba deb

hisoblashlarini, 5 nafar – 22,7 % o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda «O‘qish kitoblari» va “”Odobnoma” darslarida ko‘rsatilgan mavzular asosida boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirish etarli emas deb hisoblashlari, 5 nafar – 22,7 % o‘qituvchilar esa milliy qadriyatlarni shakllantirishda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish, ya’ni barcha o‘quv fanlarini o‘tishda, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda vatanparvarlikni shakllantirish tarafdori ekanliklarini aytib o‘tdilar.

So‘rovda ishtirok etgan o‘qituvchilarning barchasi boshlang‘ich sinflardan boshlaboq milliy qadriyatlarni shakllantirish darajalarini shakllantirishning imkoniyatlarini oshirish tarafdori ekanliklarini aytib o‘tdilar va bunday darslar o‘quvchilar tafakkurini, ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘tsirishga yordam berishini ta’kidladilar.

So‘rovnoma natijalari asosida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, 15-20 yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarni ta’minlashga harakat qilishlarini namoyon qildilar. SHu bilan bir qatorda milliy qadriyatlarni shakllantirishda milliy-ma’naviy merosni o‘rganish dolzarbligini ta’kidlashdi.

Tajriba-sinov ishlari uchun tanlab olingan guruhlarda o‘quvchilarning milliy qadriyatlarni i shakllanishini darajasini kengligi aniqlash maqsadida ular bilan suhbat o‘tkazdik. Suhbat davomida ularning javoblarini quyidagicha baholadik:

- *yuqori daraja*: Vatanimiz O‘zbekistonning tarixiy obidalri haqida ijodiy fikrlovchi, mustaqil mushohada yurituvchi, vatanparvarlik, milliy-ma’naviy merosni, milliy qadriyatlarni mohiyatini puxta o‘zlashtirgan, milliy qadriyatlar haqidagi mavzu haqida fikr yuritish, uni tasavvur qilish ko‘nikmasini egallagan

- *o‘rta daraja*: Vatan haqida mustaqil fikr yuritadigan, undan faxrlanadigan va u haqida faxrlanib gapirib bera oladigan, Vatanimizning tarixiy obidalarini sanab bera oladigan, milliy qadriyatlar haqida o‘rtacha fikr bildira oladigan o‘quvchilarga qo‘yildi.

- *quyi daraja*: Vatanimiz O‘zbekistonning tarixiy obidalri haqida, milliy qadriyatlarimiz haqida tasavvurga ega bo‘lgan, biroq ularning mohiyatini to‘liq anglay olmaydigan o‘quvchilar baholandi.

O‘quvchilarning milliy qadriyatlarga munosabatini aniqlash maqsadida, tajriba va nazorat sinflarida test sinovlari o‘tkazildi. Ushbu test sinovlarida 3-sinfdan jami 113 nafar (tajriba sinfida – 57, nazorat sinfida – 56 nafar nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirok etdilar.

Pedagogik tajriba-sinovni boshlash davrida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarni shakllantirishning samaradorligidagi miqdor hamda sifat o‘zgarishlari aniqlandi.

### 1.3.1-jadval

#### Boshlang‘ich sinflarda milliy qadriyatlarni shakllantirish darajalari

№	Sinflar	YUqori daraja		O‘rta daraja		Quyi daraja	
		Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi
2	3-sinf o‘quvchilari	14	13	25	24	17	18
	<i>% hisobida</i>	25 %	23%	44%	42,7%	30,2%	32 %



## **II bob. MAKTAB VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY TADBIRLAR ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI VA USULLARI**

### **II.1. Sinfдан tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash yo‘llari.**

Umumta’lim maktablarida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar ham ijtimoiy siyosiy, ham ijtimoiy pedagogik jihatlarga ega.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy sub’yekti o‘qituvchi. Shu sababli maktab “ma’naviy-axloqiy ishlar tizimi”ni maktab tarbiyaviy ishlar tizimining boy g‘oyasi sifatida tushunish mumkin.

Shu sababli yuqoridagi fazilatlarni shakllantirish uchun ma’suliyatning asosiy yuki uning zimmasiga yuklanadi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan, maktab jamoat orasida o‘z bilimi, ma’naviy axloqiy fazilatlari bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lishlari, shaxsni hurmat qilishlari, ma’naviy tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashlari; o‘tib ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni bir birini tushunish, xalqlar, millatlar va el-elatlar o‘rtasida tinchlik, ahillik va inoqlik ruhida tarbiyalashlari va ularni zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlaridan himoya qilishlari va boshqalar talab etiladi.

Ajdodlarimiz davr sinovidan o‘tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalarni yaratganlar. Shu asosda yoshlarni ijtimoiy

hayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. Bolalarda insoniy tuyg'ularni tarbiyalashning asosi- kishilarga mehr-muhabbat qo'yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol va rostgo'y bo'lish kabi odob va axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

Mehnatkash xalq ommasi, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, uzoq davrlar davomida vujudga kelgan tarbiya usullari va vositalaridan foydalanadi, qo'llaydi, bunda bolalarning o'ziga xos xususiyatlari va butun sinf jamoasining sifatlarini ko'zlab biron-bir qaror qabul qilishni talab etadigan tarbiyaviy vaziyatni hisobga oladi. O'qish va odobnoma darslarida axloqiy odatlarni hosil qilish uchun odob normalarini, ma'naviy, axloqiy jihatlarini, o'qish darslarida turli xil ertaklar, rivoyatlar, maqollar, hikmatli so'zlar bilan o'quvchilar dars jarayonida mavzuga qiziqtirish yo'llari va usullarini o'qituvchi ishlab chiqishi kerak. Jumladan 3-sinf o'qish kitobida berilgan go'zal fazilat inson husni bo'limida bir qator ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan mavzular mavjud. Shundan "Onani rozi qilish haqida", H.Hakimzodaning "Otamiz", "Onamiz" she'rlari, "Ona mehri" ertagi, "Besh baho" hikoyasi va boshqalar.

Fikrimizning mazmunini boyitish uchun darsning to'liq tahlilini keltiramiz.

### **3-sinf.**

## **BUYUK AJDODLARIMIZ-FAXRIMIZ**

### **Boshlang'ich sinf. Ma'naviyat soati**

**Darsning maqsadi:** O'quvchilarda buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, ularga Amir Temur o'gitlarining ma'nosini tushuntirish.

**Dars uslubi:** Savol-javob, suhbat, bahs munozara.

**Dars jihozlari:** Amir Temurning rasmi, o'gitlari yozilgan plakatlar.

**Darsning borishi.**      **O'qituvchi:** Aziz bolajonlar! Bugungi “Buyuk ajdodlarimiz-faxrimiz” mavzusidagi darsimizda sohibqiron Amir Temur bobomiz haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lamiz. U kishining o'g'itlari haqidagi bilimlarimizni oshiramiz.

Amir Temur buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me'mor, ruhshunos, shu bilan birga el-yurtini sevgan va uni jahonga mashhur qilgan inson.

**Amir Temur siymosidagi o'quvchi:**

Biz kim mulki Turon

Amiru Turkistonmiz.

Biz kim-millatlarning

Eng qadimi va eng ulug'i

Turkning bosh bo'g'inimiz.

O'quvchilar navbat bilan Amir Temur hayoti, o'g'itlari haqida so'z yuritadi.

**1-o'quvchi:** Amir Temur 1336-yilning 9-aprelida Kesh, hozirgi Shahrisabzga qarashli Xo'jailg'or qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Amir Tarag'ay badavlat kishi bo'lib, o'g'liga yaxshi ta'lim-tarbiya bergan.

**2-o'quvchi:** Temur bilim olishni 7 yoshidan boshladi. U 9 yoshga to'lganda madrasadagi hamma bolalardan ustun bo'lib oladi. 12 yoshida bolalar bilan o'ynashni kamaytiradi. Ta'til vaqtlarida otasidan va boshqa kishilardan harbiy san'at sirlarini o'rganadi. Xullas, Temurbek mard, jasur, odobli bo'lib o'sadi.

**3-o'quvchi:** Buyuk sarkarda Amir Temur ko'plab o'g'itlar, pand-nasihatlar, naql va rivoyatlar aytgan. “Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni”. Bunda bobomiz biz yoshlarni bilim olishga undaydi. Bilimli hech qachon yengilmasligini uqtiradi.

**4-o'quvchi:** “Bir kalima shirin so'z qilichni qiniga kiritar”. Bu o'g'itda har bir kishini shirinso'z bo'lishga, muomala madaniyatini saqlashga chorlaydi.

**5-o'quvchi:** “Bir tayoqni sindirmoq mumkin, ko'p tayoqni bukib ham bo'lmas”. Bu o'gitda ahil bo'lishga, hamfikir bo'lishga undaydi.

**6-o'quvchi:** “Boshga qilich kelsada, rost so'zla”. Rostgo'ylik ajoyib fazilat, shuning uchun bobomiz rostgo'y bo'lishni ulug'lagan.

**7-o'quvchi:** “Yemsiz ot dovon osholmaydi”. Bu hikmatda doimo otga yoki insonlarga muhtoj bo'lgan jonivorlarga o'z vaqtida yemini, suvini berish kerakligini ta'kidlaydi.

**8-o'quvchi:** “Oltmishga kirgan otadan osh so'rama”. Bunda yoshlarni kasb o'rganishga undaydi. Keksa ota-onalarga e'tiborli bo'lish ko'zda tutiladi.

Bolalar Amir Temir haqida she'rlar aytishadi.

**9-o'quvchi:** Temur bobom

Tilla bobom,  
Donolardan  
Dono bobom.  
Der edilar  
Ona elim,  
Murodidir  
Erku-ilm.

**10-o'quvchi:** Amir Temur bobomiz,

Mardu jasur bobomiz.  
Jangu jadallar kezgan,  
Ulug davlat, yurt tuzgan.  
Abadiy o'chmas nomi,  
Dilimizda kalomi.  
Unutmaymiz hech qachon,  
Sizni ulug' bobojon.

O'quvchilar tomonidan Amir Temur o'gitlarini aytish davom etadi. Bunda “Yuz ming otliq qila olmagan ishni, bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin”, “Bugungi ishni ertaga qoldirma”, “Har mamlakatda adolat eshigini

ochdim, zulm va sitam yo'lini tosdim", "Kuch adolatdadir", "Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur qil", "Filning dumi bo'lguncha, chumolining boshi bo'l", "Avval yo'ldosh, keyin yo'l", "Adovat emas, adolat yengadi", "Ishon, ammo shubha qil", "Til qilichdan o'tkir", "El tupursa ko'l bo'lur", "Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar", "Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi" o'gitlarining ma'nosi ochib beriladi.

O'quvchilar tomonidan aytilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan izohlanadi, mazmuni savol-javob asosida tushuntiriladi.

**O'qituvchi:** Sohibqiron Amir Temur odob-axloq, ta'lim-tarbiyada namuna bo'lgan siymolardan biridir. Bobomiz farosati, aqlu idroki bilan kishilarni o'ziga jalb qiladigan shaxs bo'lgan. Uning o'gitlari siz yoshlarni halollikka, rostgo'ylikka, ota-onani hurmat qilishga, Vatanni sevishga, hayotda o'z o'rnini topishga undaydi. Shunday ekan siz ham ajdodlarga xos avlod bo'lishga intiling.

**Uyga vazifa:** Amir Temur o'gitlarini o'rganib, hayotda unga amal qilishga odatlanish.

## **XI. Darsning yakuni.**

Dars yakunida sinf o'quvchilarida milliy tushuncha, ma'lumot, o'zligini anglash, milliy g'urur, millatidan faxrlanish tuyg'ularini tarbiyalashga harakat qildim. O'zlari yashayotgan qishloq, mahalla, uyi. Ona vatani, ona zamin, uning boyliklari, noz-ne'matlarining qadriga yetish, xullas Vatanparvarlik, millatparvarlik kabi milliy qadriyatlarni tushunish, anglash, ajdodlarga munosib bo'lish fazilatlarini o'zlarida tarkib toptirish xohishini shakllantirmog'i lozim. Eng asosiysi kichik maktab o'quvchilarda o'zbek xalqining milliy an'analar, urf-odatlar, milliy qadriyatlar to'g'risida ilk ma'lumotlarni tarkib toptirishga muvaffaq bo'lish kerak. Shundan keyingina boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z millati, O'zbekiston deb atalmish muqaddas zaminga, xalqiga va ajdodlariga mos ravishda shakllanadi degan xulosaga kelish mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini ma'naviy ma'rifiy tadbirlarda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash quyidagi jihatlariga asosiy e'tiborni qaratishni zarur deb hisoblaydi.

Birinchidan, hozir o'rta ta'lim maktablarida ishlayotgan o'qituvchilarni milliy tarbiya, ayniqsa o'zbek xalqining milliy an'analari, urf-odatlar hamda qadriyatlari haqidagi ma'lumotlarni oshirish, takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz. Bu maqsadni amalga oshirishda viloyat o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari o'quv rejalariga o'quvchilar milliy tarbiyasi masalasini alohida mavzu sifatida kiritish foydali bo'lar edi.

Ikkinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv rejalariga kiritilgan o'quv predmetlari mazmuniga milliy tarbiya, shuningdek, milliy an'analar, urf-odatlar hamda qadriyatlarni kiritishni ijtimoiy hayot, kundalik turmush talab qilmoqda. Darsliklar mazmuniga boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy-ma'naviy qadriyatlar haqida bilim beradigan ko'nikma, odatlarni tarkib toptiradigan ma'lumotlarni kiritish foydali bo'ladi.

Uchinchidan, darslik, o'quv qo'llanma, xrestomatiya shaklidagi kitoblarga hamda maktabni jihozlashdagi stendlarga milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi suratlar, rasmlardan foydalanish orqali o'quvchilar his tuyg'ulariga va qalbiga kuchli ta'sir ko'rsata olish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, sinf rahbarlari, direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar o'rinbosari tarbiyaviy ish rejalariga o'qituvchilarni milliy tarbiyalash bilan bog'liq mavzularni kiritib o'rganishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq va h.k.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berish bilan bir qatorda ularning sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatini tashkil qilish barkamol insonni tarbiyalashdagi milliy axloqiy ishlar samaradorligini oshiradi.

O'quvchilarni sinfdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonida qo'llaniladigan metodlar: tarbiyaviy tadbirning maqsadi, mazmuni va uning xarakteriga mos bo'lishi; tarbiyaviy ishlarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi yo'nalishini yaxlit amalga oshirish.

Materialning rang-barangligi, qiziqarliligi va hayotiy bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilardan axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda unga rahbarlik qilishning mazmuni, shakli va usullari borligini ta'minlash, uning natijasini hisobga olish uslubiyati, ta'lim-tarbiyaning birligini yaxlit amalga oshirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy sifatlarni shakllantirish metodini tanlashda quyidagi tamoyillarga e'tibor berish lozim:

- o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan u yoki bu fazilatning mazmuniga;
- o'quvchining yoshi, ruhiy holati, aql zakovati, faoliyatiga ta'sir eta oladigan bo'lishiga;
- o'quvchilar yashaydigan hudud sharoitini hisobga olish va moslashga;
- tarbiyaviy ta'sir etuvchi usul-metodlarni qo'llashda kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida tarbiya vositasi xalq og'zaki ijodi namunalari, maqol, matal, ertak, hikmat, rivoyat, an'ana, teatr, amaliy san'atdan foydalanishga.

Sharq mutafakkirlarining madaniy me'rosi bo'lmish pandnomalar, bitiklar, yozma yodgorliklar, xalq kitoblari, urf-odat, bayramlarni amalga oshirishda qo'llanilgan. Bu metodlar quyidagilar:

1. Har bir ishda kattalarning namunasi;
2. Pand-nasihat qilish, suhbat o'tkazish;
3. O'yin va mashq;
4. Muammoli vaziyat;
5. Rag'batlantirish, tabassum, iljayish, "barakallo", yaxshi degan so'zlar;
6. O'rgatish va tushuntirish;
7. Mustaqillik va ijodkorlik;
8. Jazolash.

Yuqoridagi tarbiya usullari xalqning kundalik hayotida qo'llanilib u yo ijobiy, yo salbiy ta'sirga ega bo'lgan.

O'quvchilarni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda yuqoridagi materiallardan kompleks usulda foydalanish hayot taqozosidir. Maktabda o'tkaziladigan tarbiyaviy soatni sinfdan tashqari tadbirlar yoki ma'naviy tarbiyaviy ishlar turli shakllar va usulda olib boriladi. Ular axloqiy mavzuda suhbatlar, o'yin, ertalik, bayramlar, munozara, o'tkir zehnlilar mushoirasi, marosimlar va boshqa tadbirlardan misollar tariqasida ko'rsatamiz.

### **O'zbekiston ham o'tmishi, ham kelajagi buyuk davlat**

O'qituvchi: Aziz bolajonlar! XXI asr arafasida qadimiy O'zbekistonning yangi tarixini boshlab beruvchi voqea sodir bo'ldi. 1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis VI sessiyasida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi va bu qonun bilan mustahkamlandi. 1-sentabr Mustaqillik kuni deb belgilandi. Xalqimizning asriy orzu-umidlari ushaldi. Dunyo xaritasida yana bir mustaqil davlat O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekiston o'zining Valyutasi, Madhiyasi, Bayrog'i, Tamg'asiga ega bo'ldi. Bular davlat ramzlarining - muqaddas belgisidir.

(O'quvchilar madhiyani ijro etadi)

O'quvchi:-Bayroqdagi moviy rang- musaffo osmon va tiniq suv ramzidir.

O'quvchi:-Bayroqdagi oq rang-tinchlik, poklik ramzidir.

O'quvchi:-Bayroqdagi qizil rang- har bir tirik jon tomirida urib turgan qudratli kuch, hayot ramzidir.

O'quvchi:-Yarim oy- O'zbekiston xalqining ko'p asrlik an'analariga to'g'ri keladi.-Hilol, yulduz, musaffo osmonning ramzidir.

O'quvchi:-Davlatimiz Tamg'asi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan.

O'quvchi:-Tamg'aning markazida Humo qushi tasvirlangan. Bu humo baxt va erkinlik ramzidir.

O'quvchi:-Tamg'aning yuqori qismida barqarorlik ramzi- 8 qirrali yulduz tasvirlangan. Uning ichiga yarim va besh qirrali yulduz joylashtirilgan.

O'quvchi:-Quyosh tasviri davlatimiz va xalqimizning hayot yo'li hamisha nurlil bo'lishi uchun bildirilgan niyatdir.



O'quvchi:-Boshloqlar rizq-ro'zimiz- g'allaning timsoli.

O'quvchi:-Oppoq ochilayotgan paxta serquyosh yurtimizning asosiy boyligidir.

O'quvchi: Xalqimiz erkini saqlash uchun o'z jonini ayamay mardona kurashgan Shiroq, To'maris, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi kabi qahramonlarning jasorati uzoq tarixdan bizga ma'lum. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi dono hukmdorlar zamonida o'zbek davlatchiligi gullab-yashnagan. Hunarmandchilik, ilm-fan va san'at gurkiragan. Ana shu boy ma'naviy me'rosimiz ijodkorlari kim? Ular jahon tarixidan qanday o'rin olganlar? kabi savollar tug'iladi.

(Farobiy qiyofasidagi o'quvchi sahnaga kirib keladi. Boshqa bir o'quvchi uni ta'riflaydi).

O'quvchi:- Farobiy Abu Nasr Muhammad 873 yil tug'ilib, 950 yil vafot etgan. Uning nomi Aristotel qatorida tilga olinadi. Arastu birinchi muallim bo'lgan bo'lsa, Farobiy ikkinchi muallim deb tan olingan. Farobiy 160dan ortiq tibbiy-ilmiiy va ijtimoiy gumanitar bilimga oid asarlar yaratdi. Farobiy butun bir ilmiy maktabga asos solgan buyuk olimdir.

(Sahnada Ibn Sino qiyofasidagi o'quvchi kirib keladi. Boshqa bir o'quvchi uni ta'riflaydi).

O'quvchi:-Ibn Sino 980 yilda tug'ilib, 1037 yil vafot etgan. Jahon bo'yicha Gipokrat qatorida baholanadi. Uning "Tib qonunlari" asari yer yuzidagi tibbiyot olimlarining qo'lidan tushmaydigan kitobdir. Shu kitobdan olimlar juda ko'p yangi-yangi qoidalarni o'qib, bugungi tibbiyot oldida ko'p savol-javoblar topmoqdalar.

O'quvchi: -Endi buyuk bobomiz Ibn Sino o'gitlaridan eshiting!

O'quvchi: -Xom suvni ichma, sog'liqdan kechma!

O'quvchi: -Badantarbiya- kuch etar hadya.

O'quvchi: -Yeb bo'lib ovqat, yugurma faqat.

O'quvchi: -Ustingda yengil, bo'lsin u yengil.

O'quvchi: -Yurmoqlik iflos, kasalga asos.

O'quvchi: -Eng vaqtichog'lik, sog'lik va sog'lik.

O'quvchi: -Pashshadan kasal, tarqar har mahal.

O'quvchi: -Ozoda hovli, kasaldan xoli.

O'quvchi: -Dardning og'iri, u tish og'rig'i.

O'quvchi: -Ko'p dardga asos- shamollash xalos.

O'quvchi: -Emlashdan qo'rqish- dardga yo'liqish.

O'quvchi: -Kim harakatda, sog'lom albatta

(Davraga qo'lida globus va patnida qo'lyozmalarni ko'targan Beruniy qiyofasidagi o'quvchi kirib keladi. Boshqa o'quvchi uni ta'riflaydi.)

O'quvchi: -Abu Rayhon Beruniy 973 yili tug'ilib, 1048 yilda vafot etgan. U Galileydan ancha ilgari yerning o'z o'qi atrofida aylanishini kashf etdi. Uning "Hindiston", "Madaniyatshunoslik" asarlarini o'qib, astranomiya, fizika, matematika, tarix fanlarining rivojlanishiga qo'shgan g'oyat katta hissalarini bilib olish mumkin.

(Abu Rayhon Beruniy kelgusi avlodga patnisdagi o'z qo'lyozmalarini topshiradi).

O'quvchi:-Beruniy bobomiz quyoshni kuzatgan bo'lsalar, Mirzo Ulug'bek bobomiz samo yulduzlarining sirlarini ochganlar.

(Shu payt davraga Mirzo Ulug'bek qiyofasidagi o'quvchi kirib keladi)

1-o'quvchi:-

Mirzo Ulug'bek,

Ulug' bobomiz.

Shonu shavkatga,

To'liq bobomiz.

2-o'quvchi:-

Yulduzlar sirin,

Bilg'onidir.

Ilm-ma'rifat,

Charog'bonidir.

3-o'quvchi:-

Garchi johillar,

Kesdilar boshin.

O'chirib bo'lmas,

Ilm quyoshin.

(Amir Temur qiyofasidagi o'quvchi kirib keladi. Boshqa o'quvchi unga ta'rif beradi).

O'quvchi: Bobomiz Amir Temur 1336 yilda badavlat oilada tug'ildilar. Amir Temur Makedonskiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi kabi sarkardalar qatorida turadi.

O'quvchi: (Davraga Alisher Navoiy qiyofasida o'quvchi kirib keladi).

Alisher Navoiy 1441-yil tug'ilib, 150-yili vafot etgan. Uning asarlari butun insoniyat ijodining taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan. U mashhur davlat arbobi bo'lgan.

O'quvchi: - Alisher Navoiy yoshligidan aqlli, zehni bo'lib o'sadi. U 5 yoshidan she'r yozishni mashq qildi. Bir kuni u boqqa chiqdi, she'r o'qidi. Uning ovozi shunday yoqimli ediki, sayrayotgan bulbul ham bir zum to'xtadi. "Pir" etib uning yelkasiga qo'ndi.

Bulbul: -Ey xushovoz shoir, ovozing buncha yoqimli. Bulbullar navosidan ham ta'sirli ekan. Oting nima?

Alisher: -Men, Alisherman,-deb javob berdi u.

Bulbul: -Bildim-bildim, sen yosh shoirsan, endi sen o'zingga taxallus tanla,- debdi Alisherga bulbulning "navo" degan so'zi juda yoqibdi. Shundan keyin u o'z g'azallarining tagiga "Navoiy" deb yozadigan bo'libdi.

O'quvchi:

-Yaxshidan bog' qoladi,

-Yomondan dog' qoladi.

O'quvchi:-

Odam borki, odamlarning naqshidir,

Odam borki, hayvon undan yaxshidir.

O'quvchi:-

Bulbul chamanni sevar,

Odam- vatanni.

(Ashula “O’zbekistonim” Hamza Imomberdiyev she’ri).

Sog’inchlari bilan tonglari otar,  
Har giyohni nur qo’li bilan.  
Erkalanib tog’lar yotar,  
Siypab quyosh o’zi uyg’otar.  
Nurli bo’ston- hur guliston,  
Tilda doston- O’zbekistonim.  
Shu o’lkaning erkasi bizlar,  
Ham bugunning ertasi bizlar.  
Kelajagi buyuk Vatanning,  
Vorislari biz o’g’il-qizlar.  
Nurli bo’lsin- hur gulistonim,  
Tilda doston- O’zbekistonim.

O’quvchi: Har bir kishining tug’ilib o’sgan joyi- uning aziz Vatani hisoblanadi. Biz O’zbekiston nomi bilan mashhur bo’lgan go’zal Vatanda yashaymiz, Vatanimiz keng va bepayon. O’zbekistonda Buxoro, Samarqand, Toshkent singari butun dunyoga mashhur shaharlari bor. O’zbekistonda turli millat vakillari yashaydilar. Biz barcha millat bolalari bilan do’st bo’lib tinch-totuv yashashni istaymiz.

O’quvchi:-

Kimki ahil yashasa,  
Manmanlikni tashlasa.  
Eng yovuz dushmanni ham,  
Yanchib tashlaydi har doim.  
Hamma:  
Do’stlar ahil bo’lganda,  
Qo’lni-qo’lga berganda.  
Yovning holi tang bo’lar,  
Yuragi g’amga to’lar.

Bizlar bilib oldik xo'p,

Ahillikda hikmat ko'p.

(Baravariga bir birining qo'lini ushlab ko'tarishadi).

O'quvchi: -Kelajagimiz porloqligi jonajon Respublikamizning mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan bog'liq. O'zbekiston mustaqillik sharoitida o'z istiqlol yo'lini topdi. Vatanimiz istiqlolini faqatgina butun rivojida ko'rishimiz mumkin. Janubiy Koreya "DEV" avtomobillari, Germaniyaning "Mercedes" tez yurarlari Asaka, Xorazm shaharlarida ishlab chiqarilmoqda. Mamlakatimizda chet el sarmoyasi ishtirokida ko'plab korxonalar ishlamoqda.

O'quvchi: -O'zbekiston Birlashgan Millatlar tashkilotiga a'zo.

O'quvchi: -O'zbekistonni 100 dan ortiq mamlakat tan oldi.

O'quvchi: -Ko'plab oltin konlarimiz bor.

O'quvchi: -Uran, mis, ruh, qo'rg'oshin kabi noyob ashyolarimiz bisyor.

O'quvchi :-Buxoroda, Mingbuloqda neftni ishlaydigan zavodlarimiz mamlakatimiz qudrati.

O'quvchi: -Bozorlarimiz meva-sabzavot, bug'doy mahsulotlariga qishin yozin to'la.

O'quvchi: -Ana shu boyliklarni isrof qilmay, oqilona ishga solsak, kelajakda dunyodagi eng buyuk davlatlar qatoriga qo'shilamiz.

O'quvchi: -Buning uchun biz yaxshi o'qishimiz, chet tili, kompyuterga oid bilimlarni yaxshi bilmog'imiz lozim.

(“Vatan” ashulasi Narimon Orifjonov she'ri xor bo'lib aytiladi)

Yashna Vatan, hur Vatan,

Dunyoga mashhur Vatan.

Istiqlolga erishding,

Davru-davron sur, Vatan.

Yashna Vatan, hur Vatan,

Dunyoda mashhur Vatan.

Mehnat bilan quchog'ing,

Bo'ldi chaman gul Vatan.

Yashna Vatan, hur Vatan,  
Dunyoda mashhur Vatan.  
Biz bolalar baxtiga,  
Doim shunday tur, Vatan!

“Ota-ona qalbi - oliyjanob hakam”. Termiz shahri №16- umuta’lim maktabi. 3-sinf.

Suhbatning qisqacha mazmunini keltiramiz.

O’qituvchi kirish suhbatida:

Ota-ona haqida qanchalik gapirsa oz, qanchalik kuyib yonsak ham kam. Kaykovus haq “Qobusnoma”ning alohida bir bobini “Ota-ona haqqini bilmak zikrida” deb nomlanadi. Bu bobda muallif yoshlarni ota-onaning hurmatini bajo keltirishga chaqiradi. Ota-ona o’z farzandlari uchun o’limga ham roziligini ta’kidlaydi. Ayni zamonda ota-onaning ko’nglini ranjitmaslikka, ularni hurmat qilishga va shirin so’zlar bilan munosabatda bo’lishga undaydi.

Kaykovus yoshlarni o’z ota-onalarini hurmat qilishga chaqirish bilan birga o’z ota-onalarini ham bolalariga yaxshi tarbiya berish, Vataniga munosib farzandlar sifatida tarbiyalashga undaydi. Ayni zamonda, muallif ota-onani hurmat qilishni farzandlarning aqlliligi, dono va bilimli, o’qimishli bo’lishi bilan bog’laydi, hamda “Har bir farzandki, oqil va dono bo’lsa, ota-onaga mehr-muhabbatni ado etmakni bosh tortmay”, deydi. Shu bilan birga, Kaykovus ota-onani hurmat qilish masalasiga ma’naviy e’tiqod va insonparvarlik nazari ila qaraydi.

Insoniyat tarixida ota-ona madhini kuylamagan kim bor?

Darhaqiqat, Quroni Karim, hadisi Shariflarda ham ota-onaga mehr-muhabbat alohida ta’kidlangan. “Bir odam Rasululloh sallolohu alayhi vassalomning oldilariga kelib: Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog’imga kim haqliroqdir? Deb so’rabdi. Janobi Rasululloh: “Onang”ga deb aytdilar. U, yana kim- deb so’radi.

Janobi Rassululloh “Onang”ga dedilar. U yana kim dedi. Janobi Rassululloh bu safar ham “Onang”ga dedilar. U yana kim Janobi Rassululloh bus afar “Otang”ga deb javob beribdilar.

O’qituvchi suhbatda Samandar Vohidovning “Onadir ona” she’rini o’qib tahlil qiladi.

- Onalar mehri
- Sendan keskir nima bor, o’lmas?
- Onalar qahri
- Qaydan olding otashni quyosh?
- Onalar qalbidan
- Po’lat, qatda senda zo’r bardosh?
- Ona sabridan
- Senmi, ko’klam hayotbaxsh fasl?
- Yo’q, ona izi
- Senmi, totli shifobaxsh asal?
- Yo’q, ona suti
- Dengiz nedur tenglikda tanho?
- Ona og’ushi
- Yaratuvchi senmi tabiat?
- Yo’q yo’q onalar
- Baxt beruvchi senmisan hayot?
- Yo’q yo’q onalar

Haqiqatdan ham, jahonning butun g’ururi onalardir. Quyoshsiz gullar ochilmaydi. Sevgisiz baxt yo’q. Ayolsiz muhabbat yo’q. Onasiz shoir ham, qahramon ham bo’lmaydi.

Kelinglar bolajonlar, mehri cheksiz, butun dunyoni ko’krak suti bilan boqqan ayolni- Onani sharaflaylik! Onajonlarimizni sevaylik.

Ota-onalarning biz uchun eng ulug’ zot ekanliklarini, dunyodagi biz uchun ular kabi mo’tabar zot yo’q ekanliklarini o’quvchilar hammasi bilishlari, ular mehnatini qadrlashlari shart. Ular o’zlari yemay, bizlarga yedirib, voyaga

yetkazadilar. Kasal bo'lsak, boshimizda parvona bo'ladilar, quvonchimizga sherik bo'ladilar, g'am anduhga tushganimizda birinchi bo'lib yordamga keladilar. Shuning uchun ham ularni biz e'zozlashimiz kerak.

### **Navro'z bayramiga bag'ishlangan tadbir senariysi**

Mavzu: NAVRO'Z-BAHOR BAYRAMI

#### **Darsning maqsadi:**

a.**ta'limiy:** Navro'z bayramining tarixiy ahamiyatini tushuntirish.

b.**tarbiyaviy:** Navro'z bayrami haqida yangi bilimlar berish Navro'z taomlari qachon va qanday tayyorlanishi haqida tushunchalar berish.

d.**rivojlantiruvchi:** O'quvchilarning bilimlari, ifodali o'qish, fikrlash qobiliyatini bog'lanishli og'zaki nutqni rivojlantirish.

#### **Oltin qoida**

**1-O'zaro hurmat**

**2-O'ng qo'l qoidasi**

**3-Navbatma-navbat so'zga chiqish**

**4-Dars jarayonida mustaqil,ijodiy fikrlash**

**5-Faollik**

**6-O'zgalar fikrini tanqid qilmaslik**

**7-Yangi-yangi metodlarni o'zlashtirish**

**8-Barcha sinf o'quvchilarini dars jarayonida faol ishtiroklariga erishish.**

**Dars turi:** Noan'anaviy.

**Dars uslubi:** Suhbat, tushuntirish,

ko'rgazmalilik, bahs.

**Dars jihozi:** Navro'z taomlaridan namunalar.

Bayram tasvirlangan rasmlar, didaktik topshiriqlar, boshqotirma

#### ***DARSNING BORISHI***

**I. O'quvchilarni darsga tayyorlab olinadi.**

**O'qituvchi: Bolajonlar bugun hamma sog'ommi**

Darsga tappa-tayyormi?



O'quvchilar: Ustoz bizlar sog'lommiz

Darsga tappa-tayyormiz.

O'qituvchi: Darsimiz

O'quvchilar: O'qish

O'qituvchi: Burchimiz

O'quvchilar: A'lo o'qish, a'lo xulq

O'qituvchi: Bugun kimdir navbatchi

Yo'qlamani bersinchi.

Navbatchi: Menman bugun navbatchi

21 ta o'quvchi

Darsga tayyor hammasi

A'lo o'qir barchasi

O'qituvchi: Bugungi sana necha?

Navbatchi: Bugun 2014 yil «Sog'lom bola yili»ning 15-dekabr sanasi

Musiqa sadolari ostida bir she`r eshitiladi.

*Bir o'lkaki to'prog'ida oltin gullaydi,*

*Bir o'lkaki qishlarida shivirlar bahor.*

*Bir o'lkaki sal ko'rmasa quyosh sog'inar,*

*Bil o'lkaki g'ayratidan asabi chaqnar.*

*Bu o'lkani nomini toping bolalar.*



-O'zbekiston

-O'zbekiston qachon o'z mustaqillik bayramini nishonlaydi?

- 1991-yil 1-sentabr

-Xattaxtada berilgan ushbu so'zlar ma'nosini bilasizmi?

-Mustaqillik- bu birovga qaram bo'lmaslik, o'z xohish istagi bilan kelajakka intilishdir.

-Istiqlol- deganda biz mamlakatimizni 21 yildan buyon hukm surib kelayotgan erkinlik va ozodligini tushunamiz.

-Ozodlik- bu bunyodkorlikka ochilgan oydin yo'l.

-Erk deganda biz erkinlikni erkin parvoz eta olishlikni tushunamiz.

-Istiqlol- bu biz orzu qilayotgan yorqin kelajak.

-Ma'rifat nima?

-Ma'rifat- arabcha so'zdan olingan bo'lib, bilish, izlanish, o'rganish degan ma'nolarni bildiradi.

-Ma'naviyat nima?

-Ma'naviyat- xalqning, davlatning, insonning kuch qudratidir.

O'qituvchi: Rahmat. Biz bugungi darsimizni

musobaqa tarzida o'tkazamiz.

O'quvchilarni 3-guruhga bo'lib olinadi. Har bir guruh sardori o'z guruhi uchun nom tanlaydi.

**Masalan:**

1-guruh: «Binafsha»

2-guruh: «Boychechak»

3-guruh: «Lola»

II. 1-topshiriq.

1-guruhga: 1-topshiriq Kuyni suygan gullar ertagi mavzusi asosida chizilgan rasmni berib, unga qarab hikoyaning tasviridagi qismini so'zlashni topshirish



2-guruhga: Bahorgi ishlar jarayoni tasvirlangan rasmni berib, shu asosida hikoyani so'zlab berishni topshirish.



3-guruhga: Rasmda tasvirlangan o'quvchilarni bahorgi ishlari haqida atroflicha so'zlab berish.



2-topshiriq.

O'tilgan mavzu «Haloskor» hikoyasi asosida chizilgan rasmni berib, unga qarab guruhlar hikoyaning tasvirdagi qismini so'zlash topshiriladi.

Guruhlar javobiga qarab «Rag'bat» beriladi.

3-topshiriq: Boshqotirmalar berish.

I guruhga

<b>B</b>					
<b>I</b>					
<b>N</b>					
<b>A</b>					
<b>F</b>					
<b>Sh</b>					
<b>A</b>					

Shoh va shoir

Sudralib yuruvchi hayvon

A'ziz ne'mat

Qishda ham yashil libosda

Bolalarning sport to'p o'yini

Sport turi

Ayiqning sevimli taomi

2-

guruhga:

<b>B</b>					
<b>O</b>					
<b>Y</b>					
<b>CH</b>					
<b>E</b>					
<b>CH</b>					
<b>A</b>					
<b>K</b>					

Bahorda birinchi gullaydigan daraxt

Eng aziz inson

Yovvoyi hayvon

Mehnatkash jonzor

Qishda oyyoqqa kiyiladi

Daraxt nomi

Asal yig'uvchi xashorat

Bilimlar kaliti



3-guruhga:

Ch					
U					
Ch					
M					
O					
M					
A					

Qush nomi

Meva nomi

Bobo


Matematikada bajariladi

... noma fan nomi

Bilim maskani

Asal yeyuvchi hayvon

### Rasmi «Rebus»



Bu shartda vaqt belgilanadi. Topshiriq bajaralishiga qarab «Rag'bat» beriladi.

### III. Yangi mavzu.

**O'qituvchi:** O'quvchilar bilimlar kaliti bo'lgan kitoblarimizni ochamiz.

O'quvchilar qarang 2-guruh bajargan «Rebus» orqali yangi mavzuning nomi kelib chiqibdi.

**Navro'z bahor bayrami.**

O'qituvchi: Navro'z qachon nishonlanadi?

O'quvchilar: Bahor faslida.

Bahor fasli undagi o'zgarishlar, bayramlar haqida savol-javob o'tkaziladi.

She'rlar aytiladi. So'ng yangi mavzu o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi.

Navro'z haqida suhbat quriladi.



«Navro'z bahor bayrami» matnini uch qismga bo'lib har bir guruhga topshiriladi.  
Sardorlarga tezkor savollar beriladi.

1-guruh:

1. O'zbekiston Prezidenti kim?
2. G'azal mulkinging sultoni kim?
3. 12 sonida nechta o'nlik, nechta birlik bor?
4. Bahorda birinchi gullaydigan daraxt?
5. Ertaklarda shupurgida uchuvchi kampir?

2-guruh

1. Tinchlik qushi nomi?

2. Bahorning darakchi guli nima?
3. Buyuk munajjim kim?
4. 7+2 izohlab natijani toping
5. Multfilmdagi Tomning raqibi kim?

### 3-guruh

1. Viloyat hokimi kim?
2. Prezidentimizning asarlaridan biri
3. Bahorda birinchi uchib keladigan qush?
4. 8-4 izohlab natijani toping.
5. Zumradning raqibi kim?

### **IV. Mustahkamlash.**

O'quvchilar ishtirokida navro'z taomlariga doir she'rlar orqali dasturxon tuzash. Dars so'ngida guruhlar to'plagan «Rag'bat» kartochkalarini sanab, g'olib guruh aniqlanadi.

O'quvchilarni baholab dars yakunlanadi.

**V. Vazifa:** Matnni o'qib, mazmunini so'zlab berish.

## **II.2. Maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirishga doir tajriba –sinov ishlari va natijalar tahlili**

Milliy qadriyatlarni tarbiya jarayoniga hamohang olib borishimiz, ularni yoshlarga tizimli o'rgatishimiz orqali yoshlar turli xil g'oyaviy ta'sirlarning maqsad va muddaolarini bir-biridan farqlay oladi. Chunki qadriyatlar yoshlarning tarixiy xotirasi, milliy o'zligini anglashi milliy -ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan sog'lom muhitni shakllantiradi va uni hurmat qilish ruhida tarbiyalaydi; Milliy qadriyatlarni o'rganish, milliy g'urur, avlodlarga munosib vorislar bo'lish, ular bilan faxrlanish va ularga o'xshab o'z Vatanining ravnaqiga munosib hissa qo'shish bilan bog'liqdir. Hozirgi zamon ilm-fan yutuqlarini egallash, fan va texnologiyalarni o'zlashtirishga da'vat etadi, vatanparvarlik tuyg'ularini oshiradi. O'z xalqiga va millatiga bo'lgan sadoqatini mustahkamlaydi. Qolaversa kelgusi avlodlar oldidagi mas'uliyatini oshiradi. O'zbekistonning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotga ega bo'lgan mustaqil mamlakat sifatida dunyo hamjamiyatida o'ziga xos o'ringa va nufuzga ega bo'lishi uchun fidoyilik bilan mehnat qilishga xizmat qiladi.

Tajriba qismining avvalida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zbek xalqining milliy qadriyatlarni o'rganishning shakllanganlik darajalari va uni aniqlash mezonlari aytib o'tilgan edi.

Olib borilgan tajriba –sinov davomida o'quvchilarni o'zbek xalqining milliy ma'naviy merosi va milliy qadriyatlarni o'rganish uchun ularni muzeylarga, tarixiy obidalarni o'rganish markazlariga olib borildi, tarixchi, adabiyotshunolar bilan uchrashuvlar, suhbatlar uyushtirildi, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tashkil etildi. Mustaqil (har bir bolaga individual) topshiriqlar berib borildi. “Rassomlar bellashuvi” va “Men vatanning parchasi” mavzularida bellashuvlar o'tkazildi. Bunda asosan Vatan mavzusiga e'tibor qaratiladi. Mustaqil ishlarda o'quvchilar yurtimiz zaminidagi [asoru - atiqalarning sura'tlarini yig'ishdi](#). Buvi va bobolaridan lapar, qo'shiqlar, matal va masallar, topishmoqlar hamda tez aytishlarni o'rganib kelishdi va bir-birlariga o'rgatishdi. O'zbek xalqining milliy



qadriyatlarni o'rganishga tayyorlash zarurligini ko'rsatdi. Natijada o'quvchilarning o'zbek xalqining milliy qadriyatlarni haqidagi bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash dasturi ishlab chiqildi va Termiz shahridagi umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek xalqining milliy qadriyatlarni o'rganish va u orqali o'quvchilarda faollikni oshirish ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning metodikasi ishlab chiqildi.

Tajriba sinov ishlari davomida keng qamrovli ishlar olib borildi. Ayrim o'qituvchilarning bu xaqdagi fikr va mulohazalarini ham atroflicha tahlil qilib o'tildi. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarini faolashtirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini bugungi holatlarini chuqur tahlil qilib o'tildi. Ayrim darslar kuzatildi va bu haqida fikrlar bildirildi.

**Tajribadan oldingi 3-a(тажриба гурухи ) va 3-b sinflarda milliy qadriyatlarni shakllantirish darajalari**

№	Sinflar	YUqori daraja		O'rta daraja		Quyida daraja	
		Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi
2	3-sinf o'quvchilari	14	13	25	24	17	18
	% hisobida	25 %	23%	44%	42,7%	30,2%	32 %

Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, mavzu haqida ular umumiy tushunchaga ega ekanlar. Shundan so'ng biz mavzu haqida tajriba sinfimizda ish boshladik. Tadbir rejalarini tuzib chiqdik. Qiladigan ishlarni belgilab oldik. Ish rejalarini ishlab chiqdik. Shu reja asosida mukammal ish olib bordik. Avval darslarni kuzatdik, **qilinadigan ishlarni belgiladik. Ayrimlaridan voz kechdik.**

**Tajribadan keyingi o'zlashtirish natijalari jadvali**

**Boshlang'ich sinflarda milliy qadriyatlarni shakllantirish darajalari**

№	Sinflar	YUqori daraja		Oʻrta daraja		Quyi daraja	
		Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi
2	3-sinf oʻquvchilari	16	14	28	24	12	18
	<i>% hisobida</i>	28 %	23%	50%	42,7%	22,2%	32 %

Maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish yoʻllarini oʻrganish maqsadida olib borgan ishlarimiz, tizimli tashkil etilgan tadbirlar natijasida oquvchilarda milliy gʻurur tuygʻusini oʻsganligini guvohi boʻldik.

Oʻtkazilgan tajribalarimizdan ma'lumki, bugungi ta'limda boshlang'ich sinf oʻquvchilarini milliy qadriyatlarni shakllantirishda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning ahamiyati katta. Yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash biz pedagoglarning zimmasidadir.

## **Xulosa**

Buyuk ajdodlarimiz asrlar davomida yaratgan beqiyos ma'naviy va ma'rifiy me'rosimizni, milliy qadriyatlarimizni yanada boyitish va rivojlantirish, farzandlarimizni yetuk insonlar etib voyaga yetkazish, ularning baxti va kamoli uchun hech narsani ayamaski davlatimiz va jamiyatimizning doimiy ustuvor vazifasi bo'lib qolishi, ayniqsa muhimdir.

“Ma'naviyatli el- botir el” deb bejiz aytilmagan. Ma'naviyatda insonning iymoni, e'tiqodi, axloqi va ichki dunyosi namoyon bo'aldi. Komil inson g'oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni ham yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat-ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan.

Dars jarayonida va sinfdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida milliy qadriyat, milliy an'ana, urf-odat tushunchalarini shakllantirishning rang-barang turlaridan, vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish zarur.

Ishimizda asosan inson shaxsni shakllantirishdagi milliy qadriyatlarning maqsadi, vazifalarini, o'zbek xalqining o'tmishidagi me'rosini o'rganib, uni hozirgi paytda bolalarni tarbiyalashdagi ahamiyatini tahlil qilishga harakat qildik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyat haqida tushunchalarni tarkib toptirish uchun o'qituvchi maktab tarbiyaviy tadbirlarning shakliga, mazmuniga alohida e'tibor bermog'i va unga har tomonlama tayyorgarlik ko'rishi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Bolalar bilan ta'lim tarbiya ishlarini olib borishda milliy qadriyatlardan foydalanish jarayonidagi kamchilik va nuqsonlar hisobga olindi. Tadqiqotni tashkil qilishda bola shaxsini kamol toptirishning hamma bosqichlarida xalq milliy qadriyatlaridan foydalanishga tayanildi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot ishimiz natijasiga ko'ra quyidagi tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

1. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda milliy qadriyat turlaridan foydalanish;

2. Milliy qadriyatlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga moslashtirilgan ssenariylarni tuzish yaxshi natijalarni beradi.
3. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarning shakllantirishning turlari bu yoshdagi bolalarning idrok qilish jarayonini mustahkamlaydi.
4. Ota-bobolarimizdan, ona-momolarimizdan bizga qoldirgan boy me'rosini avaylab asrab, boyitib, takomillashtirib, uni zamon yutuqlari bilan ijodiy boyitib boshlang'ich sinf o'quvchilarini tafakkuri, dunyoqarashini milliy qadriyatlar asosida shakllantirib, kundalik turmushlarida qo'llashga o'rgatish muhimdir.
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda buyuk allomalarning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi o'g'itlari, pandnomalaridan foydalanib borilsa yaxshi natijalarga erishiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimov I. A. «Xalqimizning yo'li – mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir». T.: «O'zbekiston», 1996-y.
2. Karimov I. A. “Ijobiy ishlarni oxiriga yetkazaylik”. – T.: “O'zbekiston”, 1994-yil, 28-bet.
3. Karimov I. A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. - T., “Sharq”, 1998-yil, 37-b.
4. Karimov I. A. “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida”.-T.: “O'zbekiston”, 1990-yil.
5. Karimov I. A. “Buyuk kelajak sari”. - T.: “O'zbekiston”, 1992-y.
6. Karimov I. A. “Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”. - T., “Sharq”, 1997-y.
7. Karimov I. A. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. T.: «O'zbekiston», II tom, 1996-y.
8. Karimov I. A. “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. - T., “O'zbekiston”, 1997-yil, 137-b.
9. Karimov I. A. «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari». T.: «O'zbekiston», 1996-y.
10. Karimov I. A. «Yuksak ma'naviyat - jamiyat taraqqiyotining asosi». T.: «O'zbekiston», 1998-y.
11. Karimov I. A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2008-y.
12. Karimov I. A. «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida». T.: «O'zbekiston», 2011-y.
13. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: «O'zbekiston», 1992-y.
14. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», - T.: «O'zbekiston», 1997-y.
15. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, - T.: «O'zbekiston», 1997-y.
16. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi. - T.: «O'zbekiston», 2014-y.
17. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. - T.: «Fan», 2008-y.

- 18.O'zbekiston umumta'lim maktablarining konsepsiyasi, . - T.:“Fan”, 2008-y., 115 bet.
- 19.Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. - T.: “Fan”, 1995-y., 186 b.
- 20.Musurmonova O. “O'quvchilarni ma'naviy madaniyatni shakllantirish”. - T.: “Fan”, 1993.
- 21.Otamurodov S. “Ma'naviyat asoslari”. - T.: «O'qituvchi», 2002-yil.
- 22.Usmonov P. Odobnoma. - T.: “O'qituvchi”, 1992-y, 140 bet.
- 23.Toshimov R.Yu. Muomala treningi. - T.: «O'qituvchi», 1994-y., 260 b.
- 24.Raxmonov S. “Bolalarda madaniy ko'nikma va odatlarni tarbiyalash”, - T.:“O'qituvchi”, 1994-y.
- 25.Safo Ochil “Mustaqillik ma'naviyati - tarbiya asoslari”. - T.:“O'qituvchi”, 1995.
- 26.Sohibov A. “Prezident I.A.Karimov asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya vorisligi muammosining yoritilishi”, “Xalq ta'limi”, 2-son, 2009-yil, 4-bet.
- 27.Mamedov S. Oila va maktabda bola tarbiyasi. - T. “O'zbekiston”, 1992, 120 b.
- 28.Jabborov A. “Ajdodlar tajribasi”. - T., 1996, 37-43.
- 29.Javliyev T. “An'analar - hayot sabog'i”. - T. “O'zbekiston”, 1992, 90.
- 30.Temurova S., Toshpo'latova G. Sinf rahbari faoliyati. - T.: “O'qituvchi”, 1985-y, 160 bet.
- 31.G'aybullayev N. R. “Barkamollik - taraqqiyot kaliti”. - T.: “O'qituvchi”, 2000-y, 191 bet.
- 32.Sattor Mahmud. “O'zbek udumlari”. - T., “Fan”, 2005-yil.

#### **Elektron ta'lim resurslari va internet manbalari:**

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.lib.psichology.narod.ru](http://www.lib.psichology.narod.ru)

**мирзиёев асарлари қисқартириш**

**мавзунинг мактабдандан таш таълим ичига тарбиявий тадбир асосланмаган**

2. М т т га мисол келтирилмаган
3. Тажриба синовда даражалар нимани белгилайди

## Мундарижа

<b>Kirish</b> .....	<b>3</b>
<b>I BOB. O‘ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDA O‘QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</b> .....	<b>9</b>
<b>I.1. Boshlang‘ich sinflarda milliy qadriyatlarni shakllantirish mazmuni</b> .....	<b>9</b>
<b>I.2. SHarq mutafakkirlarining milliy –axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash haqidagi fikrlari</b> .....	<b>17</b>
<b>1.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishning amaldagi holati</b> .....	<b>29</b>
<b>II bob. MAKTAB VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY TADBIRLAR ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI VA USULLARI</b> .....	<b>33</b>
<b>II.1. Sinfдан tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash yo‘llari</b> Ошибка! Закладка не определена.	
<b>2.2. Sinfдан tashqari nfh,bzdbq tadbirlarda bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash</b> .....	Ошибка! Закладка не определена.
<b>II.2. Maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirishga doir tajriba –sinov ishlari va natijalar tahlili</b>	<b>56</b>
<b>Xulosa</b> .....	<b>59</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</b> .....	<b>61</b>

